

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA
AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

ALLANAZAROV Q. O.

TALABALARNI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA
MUHANDISLIK KASBIY FAOLIYATIGA TAYYORLASH
METODIKASI

MONOGRAFIYA

Termiz – 2026

UDK 378:62:37.091.3

KBK 74.58

A-45

Allanazarov Q. O. Talabalarni interfaol metodlar asosida muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasi : Monografiya. - Termiz. "Termiz publishing center" nashriyoti, 2026. – 134 b.

Mazkur monografiyada talabalarni interfaol metodlar asosida muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasi yoritib berilgan.

Monografiyadan texnika oliy o'quv yurtlarining 60730300 - Qurilish muhandisligi (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari hamda magistrleri mutaxassisliklari. Materiallar qarshligi fanidan kurs ishi (loyiha)larini va mustaqil ishlarini tayyorlashda metodik qo'llanma sifatida amalda foydalanishlari mumkin.

Masul muharir:

U.A. Eshquvvatov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

J.D. Avazov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.X. Xayitov – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Monografiya Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Kengashining 2026-yil 25- apreldagi 7-sonli qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-13-305-3

© Allanazarov Q. O, 2026

© "Termiz publishing center", 2026

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-son va 2017-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish Vazirligini tashkil etish to‘g‘risida” PF-5264-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son va 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775 son Qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiya tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF-5847-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-42-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-200-son qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda mazkur monografiya muayyan darajada xizmat qiladi. Bugungi globallashtirish davrida har bir mamlakatning iqtisodiy va texnologik taraqqiyoti, avvalo, malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, muhandislik sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash har qanday davlat uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki sanoat, qurilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, energetika kabi sohalarning rivojlanishi ko‘p jihatdan muhandislik salohiyatining yuksakligiga bog‘liqdir. XXI asrda muhandislik kasbiy faoliyati tubdan o‘zgarib bormoqda. Yangi texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt kabi tendensiyalar muhandislar zimmasiga yanada ko‘proq mas’uliyat yuklamoqda. Shu sababli, an’anaviy o‘quv jarayonlari orqali

yetuk muhandis kadrlarni tayyorlash yetarli darajada samaradorlik bermaydi. Zamonaviy muhandislik ta'limi yangicha yondashuvlar, zamonaviy metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi zarur. Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalarni muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash jarayonida interfaol metodlardan keng foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Interfaol metodlar nafaqat bilimlarni chuqurlashtirish, balki talabalar mustaqil fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, kreativ yondashuv va muammoli vaziyatlarni hal qilish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi tub islohotlarni boshdan kechirmoqda. Prezidentning farmon va qarorlari asosida ta'lim jarayonining sifatini oshirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish, zamonaviy o'quv metodikalarini tatbiq etish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, muhandislik ta'lim yo'nalishlarida interfaol metodlar asosida kasbiy tayyorlov darajasini oshirish orqali ishlab chiqarish sohalarining innovatsion rivojlanishiga hissa qo'shish maqsad qilingan. Shunday sharoitda "Talabalarni interfaol metodlar asosida muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasi" mavzusi ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishda kompleks yondashuv, ilmiy asoslangan metodikani ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.

Mazkur monografiyaning asosiy maqsadi — talabalarni interfaol metodlar asosida muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasini ilmiy jihatdan asoslab berish, ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni samarali tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- Muhandislik kasbiy faoliyatining zamonaviy talablari va xususiyatlarini tahlil qilish;
- Talabalarni muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashdagi mavjud muammolarni aniqlash;
- Interfaol o'qitish metodlari mazmuni, turlari va imkoniyatlarini chuqur o'rganish;

- Interfaol metodlarni muhandislik ta'lim jarayoniga integratsiyalash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- Talabalarda kasbiy kompetensiyalar, amaliy ko'nikmalar va kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalarni taklif etish;
- Taklif etilayotgan metodikaning samaradorligini eksperimental tekshirish va ilmiy xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning obyekti va predmeti

Tadqiqot obyekti — oliy ta'lim muassasalarida muhandislik sohasida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonidir.

Tadqiqot predmeti esa — interfaol metodlar asosida talabalarni muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasi hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Mazkur tadqiqot quyidagi jihatlari bilan ilmiy yangilik kasb etadi:

Talabalarni muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashda interfaolmetodlarning o'rni va imkoniyatlari tizimli asosda tahlil qilindi;

Muhandislik ta'limida interfaol metodlarning samarali turlarini aniqlash va ularni o'quv jarayoniga integratsiyalash mexanizmi ishlab chiqildi;

Talabalarda amaliy ko'nikmalar, kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar shakllantirildi;

Taklif etilgan metodikaning samaradorligi eksperimental tajribalar orqali asoslab berildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida muhandislik sohasida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ta'lim jarayoniga interfaol metodlarni joriy etish orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

Talabalarda amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalar shakllanishi jadallashadi;

Talabalar mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish, kreativ yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi;

Muhandislik ta'limining sifat ko'rsatkichlari oshadi;

Ishlab chiqarish sohalari uchun raqobatbardosh, yuqori malakali muhandis kadrlar tayyorlanadi. Shuningdek, ushbu monografiya muhandislik sohasidagi pedagoglar, tadqiqotchilar, ta'lim muassasalari rahbarlari uchun amaliy qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin.

Tadqiqotning metodologik asoslari

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy asos va yondashuvlardan foydalanildi:

Ta'lim nazariyasi va pedagogik texnologiyalar bo'yicha zamonaviy ilmiy-nazariy qarashlar;

Interfaol metodlarning psixologik-pedagogik asoslari;

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv konsepsiyasi;

Tajriba-sinov, kuzatuv, eksperiment va statistik tahlil metodlari;

Innovatsion pedagogik yondashuvlar va ilg'or xorijiy tajribalar.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

Talabalarni kasbiy tayyorlash, ta'lim jarayoniga interfaol metodlarni joriy etish masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, pedagogika sohasida Yu. Hakimov, S. Saidahmedov, R. Karimov, N. To'xtaev, A. G'ofurov, hamda xorijiy tadqiqotchilardan J. Bruner, D. Kolb, M. Mayer, R. Ganjina va boshqalar asarlarida bu masalaga e'tibor qaratilgan.

Shunga qaramay, muhandislik ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda interfaol metodlar asosida kasbiy tayyorlash masalasi yetarlicha chuqur tadqiq etilmaganligi kuzatiladi. Ushbu monografiya mazkur ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning amaliy asoslari. Tadqiqot ishlari Toshkent shahri va respublikaning boshqa hududlaridagi qator oliy ta'lim muassasalari, xususan, texnika va muhandislik sohasidagi universitetlar negizida amalga oshirildi. Talabalar ishtirokida tajriba-sinov mashg'ulotlari, interfaol metodlar asosidagi darslar tashkil etildi va ularning samaradorligi tahlil qilindi.

I BOB. TALABALARNI MUHANDISLIK KASBIY FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Jahonda innovatsion muhandislik kasbiy faoliyati va uning rivojlanish bosqichlari

Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'limga nisbatan talab keskin ortganligi sababli, oliy ta'limni rivojlantirish hamda modernizatsiyalash yuzasidan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimizning Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonda 2026-yilgacha nodavlat oliy ta'lim muassasalari sonini kamida 50 tagasha oshirish, 2026-yilgacha 10 ta salohiyatga yega oliy ta'lim muassasalarini THE va QS xalqaro reytingga kirishga tayyorlash maqsad qilingan. Bundan tashqari, farmon loyihasida qabul parametrlarini shakllantirish va tasdiqlashni soddalashtirish, ushbu jarayonda oliy ta'lim muassasalari vakolatini kengaytirish ham nazarda tutilgan. Bunda, to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta'lim muassasalari tomonidan belgilash tartibi joriy etiladi, 2026 yilda qabul ko'rsatkishi kamida 250 mingga yetkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF 5847-sonli O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqishga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosiy maqsad etib belgilangan.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida ta'lim cohalarini sifat jihatdan jadal rivojlantirish, bu borada bo'lajak muhandislarning kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini rivojlantirish, individual ta'lim traektoriyalariga acoclangan, talabalarda kreativ fikrlash, talabalarda muqaddir ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida

kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim ctandartlariga acoclangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dacturlari va o'quv-uclubiy materiallarni keng joriy etish, talabalarda muctaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim ctandartlariga acoclangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dacturlari va o'quv-uclubiy materiallarni keng joriy etish kabilar yuzacidan tadqiqotlarni amalga oshirishni taqazo etadi.

Bugungi kunda oliy ta'limning rivojlanish belgilaridan biri interfaol ta'lim metodlarini yaratish, ya'ni, oliy ta'lim muassasalari yoki ularni alohida tarkibiy qismlarining hamda ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlari, ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan korxonalarining majmuini shakllantirishdir. Rivojlangan mamlakatlarda ayniqsa Germaniyada eng ko'p tarqalgan kasb-hunar ta'limining "Dual" tizimida o'qitish keng qo'llaniladi. "Dual" tizimining mohiyati shundan iboratki, o'quv jarayonida talabaning bo'lajak mehnat faoliyatiga bog'lab o'qitish ya'ni ishlab chiqarish korxonasi bilan oliy ta'lim muassasasi hamkorlikda o'qitish nazarda tutiladi.

Ko'pgina tadqiqotchilar oldindan beriladigan ya'ni ilgarilab boruvchi ta'limga o'tish zarurat ekanligini ta'kidlaydilar, ular oldindan beriladigan ta'limni "kasbiy ta'limning insonda mavjud bo'lgan qobiliyatlarni faollashtirishga, insonparvarlik nuqtai-nazaridan fikrlash va xulq-atvor shakllanishiga, amaliyotda namoyon bo'ladigan innovatsion yangilovchi intellekt vujudga kelishiga yo'naltirilgan madaniy meros va bilimlarni yetkazishda mazmun, jarayon va natijaning o'zaro aloqalarida namoyon bo'ladigan tizim yaratuvchi, muhim ahamiyat kasb etadigan xususiyati" sifatida talqin etadilar. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari doirasida intellektual mulkni kapitallashtirishni alohida ko'rsatib o'tish o'rinli bo'ladi. "Ilmiy ta'lim muassasalar (oliy ta'lim muassasalari) moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan daromadlarni iste'mol qilmaydilar,

aksincha uni ko‘paytirib boradilar. Gap shundaki, ular yangi bilimlar yaratib, bu bilimlarni mutaxassislariga beradilar va buning natijasida ilmiy-pedagogik xodimlar inson intellektual qiymatini oshirib boradi, yuqori malaka talab etadigan mehnat bozorida uning qiymatini oshiradi, bu esa pirovard natijada jamiyat daromadlarining oshishiga olib keladi”. Ushbu shart-sharoitlarda zamonaviy oliy ta’lim muassasalari intellektual faoliyat doirasidagi yetakchi oliy ta’lim muassasalariga aylanadi va bu faoliyat natijasida ilmiy innovatsion faoliyat samarasi shaklidagi yuqori qiymatli inson kapitalining vujudga kelishini ta’min etuvchi kapitallashtirilgan yangi bilimlar, yangi nomoddiy qiymatlar yaratiladi. Intellektual mehnatni kapitallashtirish tizimida mustahkam resurs imkoniyatlariga: ishchi xodimlar salohiyatiga, moddiy texnik bazaga va xududiy muhitga, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga, shakllanayotgan innovatsiyalar bozoriga ta’mir etuvchi muayyan vositalarga ega bo‘lgan yirik oliy ta’lim muassasasi yetakchi o‘rinni egallagan bo‘lishi lozim. Jahon miqyosida bunday loyihalar amalga oshirilgan uchta manzil mavjud: Amerikadagi Silikon Valley, Rossiyadagi Skolkova va Hindistondagi Bengolor shahridagi innovatsion megatuzilma. Aynan ular jahonning texnik va texnologik innovatsion hamda intellektual markazlari hisoblanadi.

Dastlab, muhandislik faoliyati mazmuni haqida bilib olishimiz zarur. Muhandislar turli narsalarni loyihalash, qurish, yaratish va ta’mirlash bilan bog‘liq faoliyat olib borishadi. Muhandis bo‘lish uchun bizga fan, matematika, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarining uyg‘unligi kerak bo‘ladi. Shuni takidlash kerakki, texnologiya va muhandislik bizning yashash, ishlash va muammolarni hal qilish uslubimizni shakllantiradigan sohadir. Bu soha haqida gapirar ekanmiz avvalambor texnika, texnologiya va muhandislik haqida bilishimiz zarur.

Texnika so‘zi yunoncha “techne” (san‘at, mahorat, malaka) so‘zidan olingan bo‘lib, faoliyat esa “sub’ekt sifatidagi insonlarning muayyan natijaga erishish uchun ob’ektga maqsadli ta’sir ko‘rsatishi va shu yo‘l bilan o‘z ehtiyojlarini qondirishga atrof muhit bilan faol aloqalar orqali intilish”ni anglatadi. Demak, texnik faoliyat deganda inson jismoniy va aqliy mehnati ko‘lamini oshirish va uni osonlashtirish maqsadida, uning to‘la yoki qisman mehnat va fiziologik funksiyalarini almashtirish uchun tabiat qonunlaridan

foydalangan holda mexanik tizimlarni ekspluatatsiya qilish, ularga texnik xizmat ko'rsatish, bu tizimlarni yaratish, analiz, sintez qilish maqsadlariga yo'naltirilgan jarayonni anglash lozim. Har qanday boshqa faoliyatlar singari texnik faoliyat ham o'zining quyidagi asosiy elementlariga ega: motivlar, maqsadlar, vositalar va ularning avtomatlashtirilgan komponentlari – operatsiyalar.

Texnik faoliyat masalalari bilan ko'plab tadqiqotchilar: N.D.Levitov, B.M.Rebus, M.G.Davletshin va boshqalar shug'ullanganlar. Ular o'tkazgan tadqiqotlarning natijalari innovatsion metodik tizimni takomillashtirish muxandislik faoliyatidagi rolini hisobga olgan holda umumlashtirilgan. Bundan kelib chiqadiki, texnik faoliyatni tadqiq etishning asosiy natijalari innovatsion muxandislik kasbiy faoliyatiga ham to'g'ridan-to'g'ri taalluqlidir.

Texnik faoliyat tushunchasi namunasida innovatsion muxandislik kasbiy faoliyati tushunchasining mazmun-mohiyatini tahlil qilamiz va uning elementlari orasidagi aloqalarni aniqlaymiz. Innovatsiyalar tushunchasi fanga I.Shumpeter tomonidan o'tgan asrning 30-yillarida kiritilgan. Shuningdek, innovatsion (inglizcha "Innovate" – yangiliklar, o'zgarishlarni amalga oshirish) yangiliklarni, o'zgarishlarni: texnologiyalarni, ilmiy-texnik va konstruktorlik loyihalarini va shu kabilarni joriy etish bilan bog'liq.

"Oliy maktabda ta'lim texnologiyalari" nomli risolada innovaniya atamasini ta'limga nisbatan qo'llagan holda quyidagi ta'rifi keltirilgan: "Innovatsiya (yangilik joriy etish) – pedagogik ilmiy-texnik muvaffaqiyatlarni (*natijalarni, yutuqlarni*) yaratish, o'zlashtirish va amaliyotga joriy etish jarayonidir". Shuningdek, "kasbiy ta'limning oliy darajasi – ijodiy mahoratga tayanib muammolar yechimiga innovatsion yondashuvlarsiz erishib bo'lmasligi" qayd etilgan. Innovatsion ta'limning bosh maqsadi – mamlakat ijodiy potensialini asragan holda uni rivojlantirishdan iboratdir.

Innovatsion ta'limning quyidagi prinsiplari ajratib ko'rsatilgan:

- individuallashtirish;
- ijtimoiylashtirish;
- emotsionallik;

- ta'lim muhitining innovatsiyaligi;
- ta'lim sur'atini guruhlashtirish;
- ta'lim natijasini baholash emas balki ta'lim uchun baholash;
- fanlararo uzviylik va real dunyo talablariga yo'naltirish.

Innovatsion faoliyat – to'plangan bilim, texnologiya hamda jihozlarni tijoratlashtirishga yo'naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijoriy tadbirlar majmuasidir.

Ta'lim sohasida o'quv tarbiya jarayonining yangi mazmun, metodlar, tashkiliy shakllar ko'rinishidagi innovatsion faoliyatning yakuniy natijalarini yoki amaliy faoliyatda qo'llaniladigan ta'limning texnik vositalarini takomillashtirish, yohud, ta'lim sohasidagi ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuvlarni, ularni takomillashtirishni innovatsiya deb atash mumkin. Innovatsiyaning asosiy belgilari - bu maxsus tashkil etilgan innovatsion faoliyat natijasida ta'lim muassasasi yoki sanoat korxonasi ish jarayonida vujudga kelgan ijobiy samarali ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlardir. Bunday shart-sharoitlarda ta'lim muassasalarida ta'limning ijtimoiy xizmatlar, uslubiyotlar, texnologiyalar, texnik vositalar kabi sohalariga innovatsion yondashuvning joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. "Odatda innovatsiyalar an'anaviy muammoni yangi usul qo'llash bilan hal qilish, ma'lumot va dalillarning uzoq vaqt davomida jamlanishi va ularni idrok etish natijasida novatorlik xususiyatlariga ega bo'lgan yangi sifat vujudga kelgan vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalarning aksariyati tarixiy tajriba bilan izchil aloqada bo'ladi. Bu esa innovatsion jarayon – motivatsiyalangan, muayyan bir maqsadga yo'naltirilgan va idrok etilgan zamonaviy dolzarb va mavjud shart-sharoitlarga moslashtirilgan, ma'lum bir mezonlarga mos keladigan g'oyalar (nazariyalar, metodikalar, texnologiyalar va boshqalar)ni yaratish, o'zlashtirish, ulardan foydalanish va ularni targ'ib etish jarayoni ekanligini qayd etish imkonini beradi. Innovatsion ta'lim jarayonlarining negizida pedagogikaning ikki o'ta muhim ahamiyat kasb etadigan muammolari yotadi: pedagogik tajribani o'rganish va uni psixologik-pedagogik ilm-fan yutuqlarining amaliyotga joriy etilishi darajasiga ko'tarish.

Ko'pchilik mutaxassislar, xususan, A.Ya. Kuznesova, A.Dyakov, G.S.Xudoley, T.V.Stebenyaevalar metodik tizimni takomillashtirish

muhandislik ta'limini bilim, ko'nikma va metodologik madaniyatni maqsadga yo'naltirilgan holda shakllantirish jarayoni va uning natijalari tarzida, shuningdek, mos ravishdagi mazmun va ta'lim metodlari hisobidan texnika va texnologiya sohasi mutaxassisini innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga majmuaviy tayyorlash sifatida talqin etadilar.

Innovatsiyalarga pedagog va psixologlar uchun yaratilgan tezaurusda (tushunchalar, atamalar, izohlar lug'ati) ham o'ziga xos tasnif berilgan: Innovatsiyalar – ta'lim jarayoni taraqqiyotining muhim elementi. Ta'lim sohasidagi turli xildagi tashabbus va yangiliklarni joriy etish an'analarining jamlanishi va shakliy o'zgarishida namoyon bo'ladi. Ularning jamlanmasi ta'lim sohasida u yoki bu darajadagi global o'zgarishlarga, uning mazmuni va sifatining transformatsiyasiga olib keladi. Innovatsiyalar dolzarb, muhim, ahamiyatli va tizimli ravishda o'z-o'zidan shakllanib boradigan, yangidan vujudga keladigan ma'lumotlar bo'lib, ular turli xildagi tashabbus va yangiliklar negizida yuzaga keladi hamda innovatsion ta'lim evolyusiyasining istiqboliga aylanadi, ta'lim sohasining yanada rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsiyalarning qo'llanish sohalari va ularning turlari bo'yicha umumiy klassifikatsiyani A.D. Goxshtand taklif etgan. Innovatsion muhandislik faoliyat prinsipial jihatdan yangi yoki yangi iste'mol xususiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) yaratish va ularni ishlab chiqarishni tashkil etish; mahsulotlarni ishlab chiqarish, ommalashtirish va foydalanish uchun yangi usullarni (texnologiyalarni) ishlab chiqish yoki mavjudlarini modernizatsiya qilish sifatida tavsiflanadi. A.D. Goxshtand innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatini fan va texnika yutuqlarini xo'jalik (fuqarolik-huquqiy) iste'molga kiritish tarzida ifodalaydi.

Innovatsion muhandislik kasbiy faoliyat – mahsulotning tovar ko'rinishiga keltirilgan, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa samaraga ega bo'lgan hamda buning natijasida raqobatbardosh yangi texnika-texnologiyalarni loyihalashtirish va yaratishdir.

Innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga berilgan ta'riflarning tahliliga asoslanib, tadqiqotimiz davomi uchun quyidagi ta'rifni keltiramiz: innovatsion muhandislik kasbiy faoliyati – mahsulotning tovar ko'rinishiga

keltirilgan, intellektual mulk sifatida rasmiylashtirilgan, texnik hujjatlari yoki ishlab chiqarish namunalari mavjud bo'lgan, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa ko'rinishda samara beradigan va pirovard natijada raqobatbardosh bo'lgan yangi texnika-texnologiyalarni loyihalashtirish, yaratish jarayonidir. Innovatsion muhandislik kasbiy faoliyati mamlakat iqtisodining jahonda ilg'or pozitsiyalarni egallashini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega va ta'lim, texnika va ishlab chiqarish birlashuvining yangi shakllarini, yangi ko'rinishlarini aks etdiradi.

Innovatsion muhandislik faoliyatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

- kasbiy faoliyatning ijodiy qirralarini rivojlantirish (kasbiy muammolarning ijodiy va nostandart yechimlarini topa olish, katta hajmdagi axborotlar orasidan keraklilarini tezda aniqlash);

- muhandislik funksiyalari va faoliyat turlarining integratsiyasini (mahsulot va texnologiyalarni loyihalashtirish va ularni ishlab chiqarishni tashkil etishda kashfiyotchilik va konstruktorlik funksiyalarini samarali uyg'unlashtirish, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila olish, bozor ehtiyojlarini bilishga yo'naltirilganlik) ta'minlash;

- kasblararo samarali muloqotni (kasbiy muammolarni hal etishda boshqa kasb vakillari bilan bir jamoada samarali ish olib borishga tayyorlik) yo'lga qo'yish.

Innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga oid ishlar tarkibiga, avvalo, innovatsion tipdagi quyidagi vazifalar kiradi:

- fundamental va izlanuv tadqiqotlari;
- amaliy ilmiy-izlanish, tajriba-loyihalash va texnologik ishlar;
- yangi yoki takomillashtirilgan texnologiyalarni egallash;
- yangi yoki takomillashtirilgan tovar va xizmatlarni o'zlashtirish;
- ilmiy texnik faoliyat natijalaridan foydalangan holda tovar ishlab chiqarish, ishlar, xizmatlarni amalga oshirish va iste'mol bozorida ularni realizatsiya qilish.

Yuqoridagilardan xulosa tarzda aytish mumkinki, innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatining asosiy mahsulotlari (innovatsion mahsulotlar) quyidagilardan iborat bo'ladi: intellektual mulkni muhofaza etuvchi hujjat (patent, savdo markasi va boshqalar), mahsulotning texnik

hujjatlari, mahsulotni tayyorlash jarayonining texnik hujjatlari, yangi mahsulot, yangi texnologiya, ya'ni innovatsion muhandislik kasbiy faoliyati natijasida yaratilgan va bozorga taqdim etilishi mumkin bo'lgan barcha narsa, mahsulot va natijalar.

Quyidagi talablarga javob beradigan tovarlar va xizmatlarga innovatsion mahsulotlar sifatida qaraladi:

1. O'zbekiston respublikasi fan va texnologiyasining asosiy rivojlanish yo'nalishlariga hissa qo'shish;

2. Texnologik yangilik;

3. Ilmiy yangiliklar asosida yaratiladigan tovarlarni, xizmatlarni, kundalik hayotga tatbiq etish imkoniyati;

4. Mahsulotlarni sotish - rejalashtirilgan ijobiy iqtisodiy samaraga olib kelishi;

5. Innovatsion mahsulot – ilmiy, yuqori texnologiyalar asosida yaratilgan mahsulotlar hisoblanadi;

6. Eng yangi texnologiya namunalaridan, texnologik jihozlardan foydalanish;

7. Xizmatni amalga oshirish yoki mahsulotni yaratish maxsus tayyorlangan xodimlar yordamida amalga oshiriladi;

Tavsiflari:

1. Innovatsiyalar zamonaviy korxona, ishlab chiqarish korxonalari va firmalar uchun muhimdir. Ular raqobatbardoshlikka sabab bo'lib, foyda keltiradi;

2. Innovatsion amaliyotning muvaffaqiyati - innovatsiyalarning tarqalishiga bog'liq, shuning uchun yangi mahsulot ommaviy ravishda reklama qilinadi;

3. O'zlarining innovatsion mahsulotlarini namoyish etishda, kompaniyalar xaridorlarning ehtiyojlari to'g'risida ishonchli ma'lumotga ega bo'lish uchun bozor tadqiqotlarini o'tkazadilar, chunki mahsulotni loyihalash va yaratishda firmalar ommaviy xaridorga yo'naltirilgan bo'ladi.

Innovatsion mahsulotning baholash mezonlari:

Dolzarbligi – ta'lim siyosatida asosiy yo'nalishlarga mosligi;

Konseptualligi – muammoni anglanganligi, nazariy-metodologik asosning mavjudligi, g'oyaning aniq va yorqin bayon etilganligi;

Yangiligi – muqobillariga nisbatan yutuqlari;

Natijaviyligi – amaliyotga yo‘naltirilganligi, natijalarni tahlil va tashhislash; ijobiy taqrizlarning mavjudligi;

Translyatsiya qilish imkoniyatining mavjudligi – amaliyotga ommaviy foydalanishga tayyorligi;

Taqdimotning yorqinligi – mahsulotni rasmiylashtirish madaniyatining mavjudligi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘quv, ilmiy va ishlab chiqarish muassasalarining turli shakllardagi funksiyalarini butun mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish maqsadida birlashtirish lozim.

Tasnifiga ko‘ra, mulkchilik shakli va tegishlilik sohasidan qat’iy nazar har qanday oliy ta’lim muassasasi, o‘quv- ilmiy-innovatsion majmua bo‘la oladi, agarda, faoliyati - jamiyat, mamlakat, hududning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan, mutaxassis, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonining barcha davr va bosqichlarida ta’lim, ilmiy izlanish, ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatlarning yaxlitligini ta’minlay olsa.

O‘quv–ilmiy–innovatsion majmuaning vazifasi innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi sifatida iste’mol bozoriga kiritilgan yangi yoki takomillashgan ko‘rinishdagi innovatsion mahsulot ishlab chiqarish, amaliy faoliyatda qo‘llanadigan yangi yoki takomillashgan texnologik jarayonni shakllantirish, yoxud ijtimoiy xizmat turlariga yangicha yondashuvni ta’minlashdan iborat. O‘quv–ilmiy–innovatsion majmualarning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, an’anaviy – moddiy va muhandislik innovatsion mahsulotlari bilan bir qatorda u o‘ziga xos innovatsion mahsulot–bakalavr diplomiga ega muhandisni ham yetishtirib beradi.

O‘quv–ilmiy–innovatsion majmuaning bosh maqsadini amalga oshirish uchun ta’lim, ilmiy va kasbiy faoliyatlarni takomillashtirish muammolarini majmuaviy tarzda hal etish lozim.

Ta'lim faoliyatini takomillashtirishga oid masalalarni ajratib ko'rsatamiz:

1. Mamlakatimizda bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatiga tayyor raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishlarida ish beruvchilarning paradigmalariga yetarlicha e'tibor berilmagan;

2. Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatni yuqori darajada olib borishlari uchun umumkasbiy fanlar potensialidan yetarlicha foydalanilmagan;

3. Talabalarni muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashda muhandislik uslubiyatlari va ta'lim metodlarini integratsiyalash asosida o'qitish metodikasi to'liq ishlab chiqilmagan;

4. Ishlab chiqarish korxonalarining ilmiy-texnik salohiyatidan foydalanib o'qitishning axboriy-didaktik ta'minotini ishlab chiqishga yetarlicha ahamiyat berilmagan.

Qayd etilgan har bir bandlarni barcha ta'lim muassasalari o'z faoliyatlari uchun belgilab olishlari va ulardan bevosita amaliyotlarida foydalanishlari mumkin.

Yuqoridagi masalalarning yechimini topish uchun o'quv – ilmiy – innovatsion majmualarda boshqalar bilan bir qatorda uzluksiz ko'p bosqichli ta'lim tizimi faoliyati rivojlantirilib borilishi zarur. U kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasasi, oliy ta'lim muassasasidan keyingi ta'limni, ya'ni egallanadigan kvalifikatsiya sifatiga qarab amalga oshiriladigan, har xil darajadagi, turli xil muddatlarda amalga oshiriladigan ta'limni qamrab oladi.

1.2. Muhandislik kompetensiyalari va muhandislik ta'limi rivojlanishining aspektlari

Jahon miqyosida ko'plab rivojlangan mamlakatlarida muhandislarni tayyorlash sifatiga va muhandislik kvalifikatsiyalarini e'tirof etilishiga (hisobga olinishiga) qo'yiladigan talablarning ikki bosqichli tizimi mavjud.

Birinchi bosqich – akkreditatsiya protsedurasi natijasida texnika va texnologiyalar sohasida bakalavrlar ta'limi dasturlarining sifatini baholash. Ikkinchi bosqich - muhandislarning kasbiy kvalifikatsiyalarini ularni sertifikatlash va ro'yxatga olish orqali e'tirof etilishi.

Ta'lim dasturlarining sifatini va muhandislik kvalifikatsiyalarining xalqaro e'tirof etilishi (Professional Engineer) ikki bosqichli uslubda ta'minlanadi: ta'lim dasturlarining milliy mezonlari va akkreditatsiyadan o'tkazishning o'zaro tan olinishiga yo'naltirilgan. Mazkur tuzilma Vashington shartnomasi (Washington Accord, WA, 1989 yil) nomini olgan bo'lib, unga ko'ra shartnomani imzolovchilar: akkreditatsiya qilingan yoki boshqa imzolovchilar tomonidan tan olingan malaka, har bir imzolovchi tomonidan o'z yurisdiksiyasi doirasida malaka darajasiga teng ravishda tan olinadi.

Xususan, ushbu shartnomaga so'nggi yillarda dunyoning quyidagi davlatlari a'zo bo'lishgan:

Hindiston - Represented by National Board of Accreditation (2014);

Korea -Represented by Accreditation Board for Engineering Education Korea (2007);

Malayziya - Represented by Board of Engineers Malaysia (2009);

Rossiya - Represented by Association for Engineering Education of Russia (2012);

Shri Lanka - Represented by Institution of Engineers Sri Lanka (2014);

Turkiya - Represented by MUDEK (2011);

Muhandislik ta'limi va muhandislik va texnologiya sohasida mutaxassislarni tayyorlashning Amerika modeli bugungi kunda dunyoda juda nufuzli va mashhurdir. Bu 12 yillik o'rta maktabdan so'ng kamida to'rt yil akkreditatsiyalangan muhandislik dasturi bilan universitetda o'qish va keyinchalik litsenziyalash, ro'yxatdan o'tish (sertifikatlash) va ma'lum bir mutaxassislikda muvaffaqiyatli ishlashdan so'ng "professional muhandis" maqomini berish bilan "bakalavr" akademik darajasini olishni o'z ichiga oladi.

Muhandislarni o'qitishning ushbu modeli ko'plab mamlakatlarda, birinchi navbatda Washington Accord va Engineers Mobility Forum (EMF) ishtirok etadigan mamlakatlarda amalga oshiriladi: AQSh, Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreya, Avstraliya va boshqalar.

“Professional muhandis” unvoni (Professional Engineer) uning sohibi mustaqil ravishda kasbiy faoliyatning amalga oshirish imkoniyatiga ega ekanligini va mustaqil amaliyotchi sifatida professional muhandislik

xizmatlarini ko'rsatish uchun bir yoki bir necha davlat organlarining litsenziyalariga egaligini anglatadi. Professional muhandis sifatida ro'yxatga olish uchun:

- muhandislik dasturi bo'yicha akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasasini tugatganligi;
- kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lish;
- muhandislik faoliyatining amaliy tajribasiga ega bo'lish (mamlakatga bog'liq ravishda 3 yildan 7 yilgacha);
- kasbiy imtihonlarni topshirish (odatda);
- uzluksiz kasbiy takomillashib borish yo'li orqali o'z mahoratini oshirib borish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya etish.

Boloniya deklaratsiyasi - Germaniya, Italiya, Fransiya va Angliya ta'lim vazirlari tashabbusi bilan 1998 yilda shakllantirilgan Yevropaning yetakchi mamlakatlarining yagona ta'lim makonidir. Ushbu tashabbus boshqa davlatlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi va 1999 yilda Boloniya deklaratsiyasini 29 ta davlat tomonidan imzolandi hamda oliy ta'limning yagona tizimini yaratishning maqsadga muvofiqligi e'tirof etildi. Boshqa davlatlar asta-sekin ta'lim jarayonini birlashtirish to'g'risidagi shartnomaga qo'shilishmoqda, chunki mazkur deklaratsiyaga qo'shilish barcha uchun ochiq. Bugungi kunda Boloniya jarayoni 48 mamlakatni birlashtirdi, ammo shu bilan birga yangi ishtirokchilarni birlashtirish davom etmoqda. Birlashtirilgan ta'lim maydoni tufayli milliy dasturlar hamkorlar tomonidan oliy ta'limga tegishli eng yaxshi va ilg'or tajribalarni to'plash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Boloniya jarayonining bir qismi bo'lgan kontinental Yevropa hozirgi vaqtda muhandislar tayyorlash modelini o'zgartirgan holda ikki bosqichli oliy ta'lim tizimini joriy qilmoqda. Muhandislik va texnologiya sohasida birinchi darajali 3 yillik universitet dasturini o'zlashtirgandan so'ng, bakalavr ilmiy darajasiga ega bitiruvchi amaliy muhandislik faoliyatini boshlashga tayyor bo'ladi deb taxmin qilinadi. Bu qoida tariqasida, Yevropa muhandislar milliy assotsiatsiyalari federatsiyasi (Federation Europeenne d'Associations Nationales d'Ingenieurs (FEANI)) Yevropadagi muhandislarni sertifikatlash (ro'yxatdan o'tkazish) tizimiga zid kelmaydi.

To'rt yillik ijobiy amaliy ish tajribasidan so'ng, universitetda 3 yillik dasturni o'zlashtirish natijasida olingan "bakalavr" akademik darajasiga ega mutaxassis "yevropalik muhandis" unvonini olish uchun murojaat qilishi mumkin. Biroq, EMF tizimidan farqli o'laroq, FEANI tizimida bakalavr darajasiga ega bo'lgan mutaxassisning ikki yillik amaliy ishi universitetning 2 yillik ikkinchi darajali dasturida "magistr" akademik darajasiga ega bo'lgan o'qish bilan almashtirilishi mumkin.

Dunyoning yetakchi davlatlari tomonidan o'z muhandislariga qo'yiladigan talablarni quyidagi jadvalda keltiramiz.

1.1-jadval

AVET, SShA	SEAV, Kanada	JABEE, Yaponiya	FEANI, Yevropa Ittifoqi
Accreditation Board for Engineering and Technology, ABET, SShA. Texnika va texnologiyalar sohasida akkreditatsiyalash kengashi	Canadian Engineering Accreditation Board CEAB, Kanada. Texnika va texnologiyalar sohasida akkreditatsiyalash Kanada kengashi	Japan Accreditation Board Engineering Education, JABEE, Yaponiya. Muhandislik ta'limini akkreditatsiyalash bo'yicha Yaponiya kengashi	Federation Europeenned' Associations Nationalesd' Ingtnieurs FEANI, Yevropa Ittifoqi. Milliy muhandislik tashkilotlarining Yevropa Federesiyasi
Ta'lim natijasida bitiruvchilar nimalarni bajara olishlari yoki egallashlari lozim			
Tabiiy-ilmiy, matematik va muhandislikka oid o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olishlari	Ma'lumotlarni samarali tahlil qilish va interpretatsiyalash yo'li bilan resurslarni qayta shakllantirish, ulardan foydalanish, optimal boshqarish maqsadida mosravishdagi bilimlarni qo'llay olish	Muhandislik muammolarining turli aspektlariga global nuqtai nazardan qarash	Muhandislik kasbi mohiyatini va jamiyatga, kasbga xizmat qilish majburiyatini anglash va kasbiy xulq kodeksi FEANiga rioya qilish orqali tevarak muhitni asrash
Eksperimentni rejalashtirish va amalga oshirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va interpretatsiyalash	Jamiyatda yuz beradigan o'zgarishlarga, muhandislik kasbi texnologiyalari va talablariga tezda moslasha oladigan, ijodkor, ixtirochi, sezgir bo'lish	Texnologiyalar nufuzi va ta'siri jamiyat va atrof-muhitga ta'sirining natijalarini, shuningdek, muhandisning kasbiy etika qonuniyatlariga mutanosib ravishdagi javobgarligi va	Matematika va mutaxassislikka aloqasi bo'lgan boshqa ilmiy fanlarga asoslangan muhandislik prinsiplarini yuqori darajada idrok etish

		majburiyatlarini tushuna bilish	
Berilgan topshiriqlarga mos ravishda tizimlar, ularning komponentlari yoki jarayonlarni loyihalashtira olish	Professional muhandisning jamiyatdagi roli va majburiyatlarini idrok etish, muhandislik faoliyati barcha turlarining atrof-muhit va jamiyatga ta'sirini tushuna bilish	Matematika, tabiiy-ilmiy fanlar va axborot texnologiyalariga oid bilimlarni egallash, shuningdek bu bilimlarni qo'llash qobiliyatiga ega bo'lish	Mutaxassislik sohasi, muhandislik faoliyati haqidagi materiallardan, komponentlardan va dasturiy ta'minotdan foydalanishni hisobga olgan holda zamonaviy ishlab chiqarishning xususiyatlari haqida umumiy bilimlarga ega bo'lish
Fanlararo aloqadorlik mavzulari bo'yicha jamoada ishlash	Jamoadam samarali ishlay olish, kasb doirasida ham, umuman jamiyatda ham samarali muloqot qila olish	Kasbiy sohaga oid bilimlarni egallash va bu bilimlardan professional muammolarni hal etishda qo'llash qobiliyatiga ega bo'lish	Muhandislik yechimlarini topish va tahlil jarayonida mos ravishdagi nazariy va amaliy metodlarni qo'llay bilish, muhandislik muammolarining yechimlarini topish va tahlil jarayonida mos ravishdagi nazariy va amaliy metodlarni qo'llay bilish,
Muhandislik muammolarini shakllantirish va yechimini topish		Ilm-fanning turli sohalaridan, shuningdek texnologiyalar va axborotlarning turli ko'rinishlaridan foydalangan holda jamiyat talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida muhandislik loyihalarini yaratish va amalga oshirish	Mutaxassislikka oid mavjud istiqbolli texnologiyalarni tatbiq etish
Kasbiy va etika nuqtai nazaridan majburiyatlarni idrok etish		Yozma va og'zaki nutqni ham hisobga olgan holda kommunikativ malakalarga, ona tilida munozaralar olib borish	Muhandislik iqtisodiyotiga oid bilimlarni, sifatni ta'minlash metodlarini, texnik axborotlar va

		ko'nikmalariga va chet tilida samarali muloqot qilishning tayanch ko'nikmalariga ega bo'lish	statistikadan foydalanishni bilish
Samarali muloqot qila olish		Doimiy mustaqil ravishda ta'lim olish	Ma'muriy, texnik, moliyaviy va shaxsiy jihatlar qamrab olingani holda yetakchilik, ya'ni liderlik xususiyatlariga ega bo'lish
Muhandislik yechimlarining global va ijtimoiy natijalarini idrok etish uchun zarur bo'lgan keng doiradagi eruditsiyani namoyon etish		Belgilangan yoki amaldagi cheklovlarga mutanosib ravishda faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish	Kommunikativ malakalarga ega bo'lish va uzluksiz kasbiy rivojlanish orqali kompetensiyaning zaruriy darajasini ta'minlab borish
Doimiy ravishda bilim olish zaruratini anglash va doimiy ravishda o'z ustida ishlash			Mutaxassislik sohasiga mutanosib ravishdagi standartlarni va qoidalarini bilish
Zamonaviy muammolarni bilishni va uni hal etishga bo'lgan ishtiyoqni namoyon etish			Doimiy rivojlanishda bo'lgan texnik o'zgarishlarni o'rganib borish, kasb doirasida ijodiy izlanishlarni amalga oshirish
Muhandislik faoliyati uchun zarur bo'lgan ko'nikma va zamonaviy muhandislik metodlarini qo'llay bilish			Xorijiy tillarida erkin muloqot qila olish, tillarni jahonda ishlash uchun yetarli darajada bilish

Muhandislarni sertifikatlash va ro'yxatdan o'tkazish. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (OTIH) tomonidan taklif etilgan professional muhandislarni sertifikatlashtirish va ro'yxatdan o'tkazish tizimi Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi Xalqaro Muvofiqlashtirish Qo'mitasi tomonidan rasmiylashtirilgan. Xususan, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi Muhandislar standarti quyidagi universal va kasbiy kompetensiyalar mavjud bo'lishini taqazo etadi:

- universal bilimlarni ongli ravishda qo‘llay olish;
- lokal bilimlarni ongli ravishda qo‘llay olish;
- muhandislik muammolarini tahlil qila olish;
- muhandislik yechimlarini loyihalashtirishni amalga oshira olish;
- ijtimoiy javobgarlik;
- qonunchilik va huquqiy me‘yorlarga rioya etish;
- muhandislik faoliyatining etikasi;
- muhandislik faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- kommunikatsiya;
- hayoti davomida ta’lim olishni to‘xtatmaslik;
- lozim joylarda muhandislik qarorlarini qabul qila olish;
- muhandislik qarorlari uchun javobgarlik hissini mavjudligi.

Shu o‘rinda O‘zbekistonda tashkil etilayotgan ishlar borasida qisqacha to‘xtalilib o‘tamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yildagi 9 noyabr PQ-3939-sonli "Hududlarda tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarini jadal amalga oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida" Qarori bilan O‘zbekiston muhandis-konsultantlari assotsiatsiyasi (keyingi o‘rinlarda O‘zAIK) tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu qarorida belgilab berilgan vazifalar qatorida O‘zAIKning asosiy maqsadi asosan yirik, murakkab va strategik muhim investitsiya loyihalari, shu jumladan xorijiy muhandislik kompaniyalari bilan konsorsiumlarni shakllantirish orqali muhandislik va konsalting xizmatlarini tashkil etish asosida bosqichma-bosqich import o‘rnini bosishni amalga oshirish hisoblanadi. UzAIC nodavlat va notijorat tashkiloti (NNT) o‘z ixtiyori bilan O‘zbekiston Respublikasida qurilish sohasida loyihalash, injiniring va maslahat xizmatlarini amalga oshirish bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni birlashtiradi, loyihalashtirish va muhandislik ishlarini olib borishda hamkorlikni muvofiqlashtirish hamda o‘z a‘zolarining ko‘nikmalarini oshirishda yordam beradi.

Muhandislik ta’limining davr talablar asosida o‘zgarish dinamikasi

1.2-jadval

Muhandislik ta’limi 1980-yillarning oxiri	Muhandislik ta’limi 2000-yillarning boshi	Muhandislik ta’limi 2010-yildan hozirgi paytgacha
--	--	---

Bilimlar – o‘tmishdan “xotira maktabi”	Bilimlar – kelajak uchun (“fikrlash maktabi”)	Kompetensiyalar– “harakatdagi bilimlar”
Kompyuterlar va axborot texnologiyalarini ahamiyatining oshib borishi (modellash, vizualizatsiya, dizayn)	Biologik fanlarning ahamiyatining o‘shib borayotganligi	Zamonaviy yangi texnologiyalarni kirib kelishi (masalan, nano-bio-info-kogno, NBIK)
Barcha fanlar uchun axborot texnologiyalari ahamiyatining o‘shib borishi, fanlararo ta’limning shakllanishi	An’anaviy akademik (fanli) fanlararo va multifanlararo chegaralarni bartaraf etish an’analarining kuchayishi (o‘quv dasturlari moslashuvchanligining o‘shib borishi, masofaviy ta’lim, virtual universitet va boshq.)	Fanlarni birlashtirish va integratsiyalashtirish tendensiyasi, fanlararo/multifanlararo/transfanlararo o‘quv-ilmiy-innovatsion dasturlar
Ta’lim oluvchi – pedagogik ta’sirning ob’ekti, o‘qituvchi va talabaning monologik tarzidagi sub’ekt – ob’ekt munosabatlari	Ta’lim oluvchi – bilish faoliyatining sub’ekti. O‘qituvchi va talaba orasidagi sub’ekt-sub’ekt munosabatlari	O‘qituvchi, bakalavr, magistr, katta ilmiy xodim-izlanuvchi (doktorant) – multifanlararo jamoa a’zolari
Oliy ta’lim muassasasining ishlab chiqarish bilan kompleks aloqalari	Ishlab chiqarish bilan aloqalar – alternativ model (innovatsiyalar va tadbirkorlik, muhandislik amaliyoti, biznes-interfeys	O‘quv – ilmiy-innovatsion faoliyat jarayonida real ishlab chiqarish masalalarining yechimini topish

Yigirma birinchi asrda muhandislik kompetensiyalari yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, ushbu savolga javob tariqasida, muhandislik faoliyatini amalga oshirishdagi zaruriy kompetensiyalarini quyidagi ko‘rinishda atroflicha bayon qilishimiz mumkin:

1. Aniq, tabiiy-ilmiy va texnikaga oid fanlardan keng va teran bilimlarga ega bo‘lish hamda ulardan muhandislik faoliyatida foydalana olish;
2. Tanlangan kasbi sohasiga oid dasturiy ta’minotni bilish va undan foydalana olish;
3. Fundamental va texnik bilimlarni, texnik standartlarni, kasbiy normativlarni milliy o‘ziga xoslikni hisobga olgan holda konkret holatlar uchun tadbqiq eta olish;
4. Qo‘yilgan muhandislikka oid majmuaviy muammolarni nazariy va amaliy metodlar yordamida tahlil qila olish, tadqiq eta olishga tayyorlik; zaruriy ma’lumotlarni tanlash va baholay olish qobiliyati;

5. Zarurat bo'lganda metodologik va tadqiqotchilik tavsifidagi muammolarni yechishga tayyorlik; sog'lom fikrlash orqali murakkab shart-sharoitda, yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan holda muhandislik muammosini yechimini topish;
6. Muhandislik faoliyati natijasida ijtimoiy, madaniy va ekologik javobgarlik mas'uliyatini his etish;
7. Muhandislik faoliyati natijalarini baholay olish;
8. Huquqiy talab va normalarga, xususan sog'liqni saqlash, muhandislik faoliyatida xavfsizlik talablarini bajara olish;
9. Muhandislik faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
10. O'z kasbiy faoliyatida samarali og'zaki va yozma muloqotga, xususan zarurat bo'lganda xorijiy tilda muloqot qila olish;
11. Butun hayoti davomida kasbiy mukammallikka erishish uchun ta'lim olishga tayyorlik;
12. Muhandislik faoliyatida qabul qilingan yechimlarga javobgarlik hissiga tayyorlik;
13. Muhandislik faoliyatida qabul qilingan innovatsion va ijodiy yechimlarni tadbiq etishga tayyorlik, ya'ni, innovatsion va tadbirkor-faol, yetakchilik xususiyatlarini egallagan, tezkor harakatlanuvchan, moslashuvchan bo'lishi lozim.

Bu kompetensiyalarning ko'pchiligi predmetli - yo'naltirilgan bilimlarni talab etadi; ayrimlari tizimli fikrlashni va fanlararo malakalarni hamda jamoada ishlay olishni, yetakchilikni va ijtimoiy javobgarlikni talab etadi. Majmuaviy muhandislik faoliyati bilan shug'ullana oladigan mutaxassislarni tayyorlash maqsadida jahonning yetakchi universitetlarida Massachuset texnologiya institutida 1990 yillarning o'rtalarida olimlar, professor-o'qituvchilar, ishlab chiqarish vakillari ishtirokida CDIO (Conceive – Design – Implement – Operate, ya'ni, G'oya – Loyiha – Amalga oshirish – Boshqarish) konsepsiyasi amalga oshirilgan. "Butunjahon CDIO tashabbusi" hamkorlik loyihasida AQSh, Kanada, Yevropa Ittifoqi, Afrika, Osiyo, Yangi Zelandiyaning yetakchi muhandislik maktablari va texnika universitetlari (jahonning yigirmadan ortiq mamlakatlaridagi qirqdan ortiq universitetlar) 2002 yildan ishtirok etadilar. CDIO dasturi butun hayotiy sikl davomida mahsulot va tizimlarni yaratish

hamda rivojlantirish muhandislik ta'limining zaruriy kontekstini shakllantirishi prinsipiga asoslanadi.

CDIO muhandislik ta'limi tizmining shunday muhitini yaratadiki, unda texnik bilimlar va amaliy malakalarning o'qitilishi, o'zlashtirilishi va qo'llanishi amaliy tarzda ro'yobga chiqariladi. Kasbiy faoliyatini boshlagan muhandis "G'oya – loyihalash – amalga oshirish" ga layoqatli bo'lishi, bundan tashqari, zamonaviy shart-sharoitlarda, qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida murakkab mahsulotlar va tizimlarni "Boshqarish" ni bilishi lozim. Ta'lim jarayoni davomida muhandislik jarayonini boshqarishni, mahsulot va tizimlarni loyihalash hamda yaratishni, sanoat korxonalaridagi ish jarayonida egallangan bilimlarni qo'llashni bilishlari lozim.

Quyida dunyoga mashhur bo'lgan ba'zi kompaniyalarning paradigmalari keltiramiz.

1. *Boeing paradigmasi (Boeing list of "Desired Attributes of an Engineer).* Boeing muhandisi uchun joriy kunda zaruriy kompetensiyalar ro'yxati kompaniyaning rasmiy saytida keltirilgan. Ro'yxatning asosiy pozitsiyalari quyidagilardan iborat:

- fundamental muhandislik fanlarini tushunish;
- dizayn va ishlab chiqarish jarayonlarini tushunish;
- multifanlararo tizimli fikrlash;
- muhandislik faoliyati konteksti haqida tasavvur bo'lishi (iqtisod va biznes-amaliyot, tarix, jamiyat va buyutmachining ehtiyojlari va boshq.)
- rivojlangan muloqot malakalari;
- yuqori darajadagi estetik standartlar;
- tanqidiy va ijodiy, mustaqil va hamkorlikda fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish;
- tezkor yoki ahamiyatga molik o'zgarishlarga, yangiliklarga moslashuvchanlik qobiliyati;
- bilim olishga intilish va butun umr davomida tahsil olish istagi;
- jamoaviy ish olib borishning ahamiyatini chuqur idrok etish.

2. Tizim muhandislariga talablari.

- Intellektual qiziquvchanlik – yangilikni o'qib o'rganishga qobiliyat va istak;
- umumiy tizimdagi aloqalar va qonuniyatlarni ajrata bilish qobiliyati;

- yetakchilikka va jamoada ish olib borishga tayyor ekanligini yaqqol ifodalanganligi;

- noaniq shart-sharoitlar va axborotlar taqchilligi muhitida ish olib borishga moslashganlik;

- yaxshi bo'lishiga ishonish, biroq eng yomon variantga tayyor turishning o'ziga xos ishonchi mavjudligi;

- o'ziga ishonch va qat'iylik, biroq manmanlikka yo'l qo'ymaslik;

- zarur hollarda jarayonni to'xtatish va o'zgartirishlar kiritishni anglagan holda jarayonni amalga oshirish yo'riqnomalarini qat'iylik bilan bajarish qobiliyati;

- turli ko'rinishdagi texnik malakalarning mavjud bo'lishi – asoslangan texnik yechimlarni qo'llash qobiliyati;

- o'zgarishlarga tayyor turish;

- yuqori muloqot darajasi – tinglash, yozish va so'zlash qobiliyati;

- ko'plab mayda detallargina mavjud bo'lgan hollarda ham yaxlitni ko'ra bilish qobiliyati.

Xorijiy mutaxassislar tizim muhandisining muhim kasbiy kompetensiyalari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadilar:

- ierarxik tizimning barcha darajalaridagi talablarni boshqarish qobiliyati;

- ishonchlilik tahlili, tavakkalchilik tahlili, texnik-iqtisodiy xususiyatlar tahlilini qamrab olgan holda tizimlarni tahlil qilishning metod va vositalarini bilish;

- arxitekturaviy yondashuvni ham hisobga olgan holda tizimlarni ishlab chiqishning sifat tahlili va yetuklik tahlilini hisobga olgan holda jarayonlar tahlili;

- jarayonlarni loyihalashtirishning metod va instrumentlarini bilish.

- geterogenlikni va tizimni tashkil etuvchi elementlarning taqsimlangan bo'lishi mumkinligini hisobga oladigan integratsiyalashtirilgan tizimli yechimlarni amalga oshirish qobiliyati;

- tizimlar sinovlarini tashkil etish va o'tkazish hamda sinov natijalarini tahlil qilish qobiliyati;

- nazarda tutilmagan va ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni boshqara olish qobiliyati.

Muhandis kadrlarni tayyorlashda “Suxoy” xolding kompaniyasi paradigmasi:

- tashkiliy innovatsiyalar: xalqaro hamkorlik, dasturlarni boshqarish tizimi, savdoni moliyalashtirish tizimi, ishlab chiqarish tizimining rivojlanishi, yangi texnologik kooperatsiya;
- texnologik innovatsiyalar: raqamli loyihalashtirish, stapelsiz yig‘ish, kompozitsion materiallar, elektr samolyot, nanotexnologiyalar, superkompyuterlarda modellashtirish.

Xorijiy davlatlarda “Tog‘-kimyo kombinati” muhandislarining kvalifikatsiyasiga quyidagicha talablar qo‘yilgan:

Asosiy talab – samaradorlik:

Kompetensiyalar + Kompetentlilik = Samaradorlik;

Kompetensiyalar – ishchining hatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan ishchan sifatlar bo‘lib, ular ishchiga uning oldiga korxona tomonidan qo‘yilgan vazifalarni, topshiriqlarni maksimal darajada samarali bajarish imkonini beradi;

Kompetentlilik - texnik-kasbiy bilim, malaka, ko‘nikmalar va tajribadir. Ish jarayonining samarali va muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun inson kompetensiya va kompetentlilikka ega bo‘lishi lozim.

Bunda natijaviylik, kompetensiyalar, rivojlanish, yutuqlarga erishish alohida qaralib, mazkur jarayon bosqichlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- kadrlarga oid qarorlarning qabul qilinishi;
- maqsadlarning rejalashtirilishi va qo‘yilishi (individual maqsadlar, foydali ish ko‘effitsienti)
- rivojlanishni rejalashtirish;
- faoliyat samaradorligi, rivojlanish potensialini baholash;
- monitoring samaradorligi va aks aloqalarning mavjudligi.

Barcha muhandislik ixtisosliklari bo‘yicha zamonaviy innovatsion muhandislik ta’limining xususiyatlari quyidagilarda – fundamental fanlardan fizika va matematika fanlaridan tayyorgarlikning mavjudligi; multifanlararolik (kasbiy faoliyat sohalari), umumiy sohaviylik xususiyati (kasbiy faoliyat ob’ektlari), qisqa muddatlarda raqobatbardosh va talab mavjud bo‘lgan yangi avlod mahsulotlarini global bozorda yaratish

imkonini beruvchi jahon miqyosidagi kompyuterli muhandislik ilg'or ilmiy texnologiyalarining keng qo'llay olishligida o'z aksini topishi lozim.

Amaliyotga joriy etishning ilg'or strategiyalari yoki muhandislik kompetensiyalarini shakllantirishga majmuaviy yondashuv. Muhandislik ta'limining yangi zamonaviy darajasi va sifatiga erishish uchun innovatsion ta'limning quyidagi yondashuvlaridan foydalanish lozim bo'ladi:

- kompetensiyali yondashuv;
- loyihali ta'lim metodi (amaliy yo'naltirilgan, muammoli-yo'naltirilgan yondashuvlar, muammoli ta'lim metodi);
- bir mutaxassislikka yo'naltirilgan yondashuv o'rniga fanlararo va multifanlararo yondashuv (Multidisciplinary, Cross-Disciplinary Learning (CDL) vs Discipline-CentrisLearning);
- jamoada ta'lim berish;
- axborotni mustaqil izlashga asoslangan metod;
- masofaviy ta'lim, onlayn ta'lim;
- kontekst asosidagi ta'lim (keng ma'noda muhandislik faoliyatining texnologik, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ekologik, madaniyatshunoslik kontekstlarini o'zlashtirish orqali).

Real loyihalar orqali muhandislik ta'limini amalga oshirish. Muayyan loyihalar ish olib borish jarayonidagi ta'lim (sanoat korxonalarining buyurtmalari asosida) mutaxassislar tayyorlashning asosiy usuliga aylanmoqda. Zamonaviy ta'lim talablariga ko'ra, talaba olti yillik ta'lim davomida (to'rt yil bakalavriat, ikki yil magistratura) turli loyiha ishlarida ishtirok etishi va real natijalarga erishishi lozim bo'ladi. Bu jarayon oliy ta'limi muassasalarida amalga oshiriladi, biroq, bunda albatta, ishlab chiqarishning aniq buyurtmalari bajariladi. Muhandislik ixtisosliklarini o'qitishda innovatsion-yo'naltirilgan yondashuv bilan bir qatorda muammoli - yo'naltirilgan yondashuv ham talabalar diqqatini ta'lim jarayonining boshlang'ich nuqtasi vazifasini bajaradigan qandaydir muayyan muammoning tahlili, tadqiqi va yechimini topishga talabalar diqqatini jalb etish imkoniyatini beradi. Tadqiq etiladigan muammo, uning yechimini topish uchun zarur bo'lgan bilimlarni talabaning ongli ravishda egallashini maksimal darajada motivlaydi, ta'lim jarayoniga fanlararo va multifanlararo yondashuv talabalarning ilm-fanning turli sohalaridan

bilimlarni mustaqil ravishda egallashga, ularni guruhlash va yechimi izlanayotgan aniq masalaning kontekstida jamlashga jahon miqyosidagi ilmiy texnologiyalarni o'rganish va ularni o'zlashtirishga undaydi.

Hozirgi davrda innovatsion muhandislik ta'limi uchun talabalar va oliy ta'limi muassasasi xodimlarining mamlakatimiz va jahon miqyosidagi ishlab chiqarish korxonalarining buyurtmalari asosida real loyihalarni ("masalalarni hal etish orqali ta'lim berish", virtual loyihaviy yo'naltirilgan jamoalar – Multidisciplinary Team-Based Project Work jamoalar faoliyati doirasida real ilmiy - tadqiqot ishlarini bajarish) ro'yobga chiqarishda doimiy ravishda ishtirok etishlari tizimini shakllantirish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zamonaviy tayanch kompetensiyalari va va texnologiyalarni (birinchi navbatda kompyuterli loyihalash texnologiyalari va kompyuter injeneringining ilmiy texnologiyalarini) oldindan xarid etish va joriy qilish, shuningdek jahonning yetakchi ishlab chiqarish firmalari (Nurturing and Supporting Engineering-led, MultiDisciplinary Teams to Successfully Compete For and Execute Large-Scale, Complex Research Projects) ijobiy tajribasini o'zlashtirish lozim. Kasbdoshlari jamoasidagi raqobatbardoshlik doirasida muhandisning asosiy malaka ko'rsatkichi mahsulotlarni, tizimlarni yoki xizmatlarni shakllantirish, ularni moliyalash va ro'yobga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan turli murakkablik darajasidagi masalalarni har safar avvalgisidan samaraliroq, mukammalroq ravishda kun tartibiga qo'yish va ro'yobga chiqarishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun muhandis keng ko'lamli ilmiy madaniyatga tayangan holda bilimlarning butun spektrini (qirralarini, jabhalarini) – aniq va tabiiy-ilmiy fanlarni, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar fanlarni, ilmiy texnologiyalarni egallagan bo'lishi zarur. Zamonaviy muhandis – ham jahon miqyosidagi kompetensiyalarni egallagan professional, ham tashkilotchi, ham muvofiqlashtiruvchi, ham majmuaviy ilmiy-texnik loyihalarning menejeridir.

Innovatsion muhandislik va loyihalashtirilgan yondashuv. Muhandislik sohasi mutaxassislarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida fanlar doirasidagi o'ziga xosliklarni, ta'lim jarayoniga tadbiq etiladigan ilmiy innovatsiyalarning xususiyatlari, shuningdek, tashqi

buyurtmachilarning (ish beruvchilarning) muhandis-ixtisosligining kasbiy sifatlariga qo'yadigan talablarini qondirishni hisobga olgan tarzda ko'rsatilgan yondashuvlarni integratsiyalashtirish eng yuqori natijalarga erishishni ta'minlashi mumkin. Ko'rsatib o'tilgan metodlarni integratsiyalashtiruvchi innovatsion muhandislik loyihalashtirilgan yondashuv – bu ishlab chiqarish kompleks vazifalarining (ilmiy-tadqiqot ishlari) talabalar, magistrantlar va katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, o'qituvchilar tomonidan fanlararo va multifanlararo jamoalarda multifanlararo tadqiqotlarni oliy ta'limi muassasasi bazasidagi yetakchi ilmiy va muhandislik maktablarida umumsohaviy texnologiyalar supertexnologik ilmiy qurilmalar (Brainware – Software – Hardware fundamental triadasi) vositasida amaliy yechimini topishdir. “Maxsus mutaxassislikka yo'naltirilgan kvalifikatsiyalardan jahon miqyosidagi kompetensiyalarga” prinsipi asosida ko'pbosqichli kompetentli yondashuvni ro'yobga chiqarish va sanoatning dolzarb ilmiy muammolari yechimiga yo'naltirilganlik ish beruvchilarning malakali va kompetentli mutaxassislarga bo'lgan real ehtiyojlarining qondirish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilganlarni umumlashtirgan holda aytishimiz mumkinki, hozirgi vaqtda turli ishlab chiqarish majmua va korxonalari tomonidan muhandislarni tayyorlashga qo'yilayotgan zamonaviy paradigmalari:

- talab va chaqiruvlarga e'tibor qaratgan holda pedagogikaning oddiydan murakkabga prinsipi asosida agregiratsiya-dekompozitsiya metodlarini tadbiq etish nuqtai nazaridan tahlildan sintez qilishga, ixtisoslik fanlarini taqdim etish va o'zlashtirishdan ilmiylik darajasini ko'tarish va multifanlikka, ya'ni “Multi Disciplinary” konsepsiyalariga izchillik asosida amalga oshayotgan tempaintellektual o'zgarishlarga mos ravishda tayyorgarlikka ega bo'lish;

- hozirgi vaqtda taklif etilayotgan ilmiy kashfiyotlarni amaliyotga tadbiq etish asosida muammolarni turli bosiqchda klassifikatsiyalash yangi ilmiy texnologiyalar va texnologik bog'lanishlarni, ya'ni “Multi Scale konsepsiyasining: “nano-mikro-mezo-makro” modellarini ishlab chiqish, majmualashtirish-agregatlash hamda tadbiq etish, darajadan darajaga ko'tarilish, xususan, mikro-darajadagi mikro strukturali material klassifikatsiyasi mezo-daraja asosida konstruksiyaning makro-darajasiga

o'tish – "Homogenization", yoki unga teskari bo'lgan konstruksiyaning makro-darajadan lokal holatlarga aniqlik kiritish asnosida "Heterogenization" mikro-darajasiga o'tish;

-yangi ilmiy texnologiyalar va texnologik bog'lanishlarni turli darajalarda majmualashtirish-agregatlash hamda tadbqiq etish, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-siyosiy, ekologik shart-sharoitlarni texnologik ishlanmalar va innovatsion texnologiyalar bilan birlashtirib, ijtimoiy ustuvor talablarni qondirish majmuaviy yondashuvni tadbqiq etishni talab etadi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, dunyoga mashhur kompaniyalarni muhandislik paradigmalarini, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini mamlakatimizda ta'lim jarayoniga tadbqiq etgan holda muhandislik ta'limini sifat va samaradorligini oshirish zamonaviy raqobatbardosh kasbiy kompetentli muhandislarni tayyorlash tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalari va oliy ta'lim muassasalari ta'lim tizimidagi nomutanosibliklarni bartaraf qilishda umumkasbiy fanlarni innovatsion yondashuvlar asosida o'qitishni tashkil etish orqali qisman bo'lsada bartaraf etish mumkin.


Respublikamizda ayni paytdagi bakalavrlar tayyorlashda Davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida bo'lajak mutaxasislarga qo'yilgan minimum talab hisoblanib, ijtimoiy ehtiyojdan kelib chiqib doimiy ravishda takomillashtirilib boriladi. Bo'lajak yosh mutaxasislar aynan malaka talablarida keltirilgan kasbiy kompetensiyalar asoslangan holda tayyorlanadi. Paradigmalar esa har bir ishlab chiqarish korxonasi tomonidan ishlab chiqiladi va ular o'zlariga kerak bo'lgan mutaxasislar shu paradigmalarga javob berishi kerakligini talab sifatida ta'lim muassasalari oldiga qo'yadi. Dunyoga mashhur barcha kompaniyalar, ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular o'zlarining paradigmalarini ishlab chiqib, zamon talabiga ko'ra innovatsiyalarni joriy qilgan holda doimiy ravishda yangilab borishi natijasida ulkan yutuqlarga erishganini ko'rishimiz mumkin. Paradigmalar ta'lim jarayoniga maxsus fan sifatida kiritilgan predmetlar tarkibi singdiriladi va bu jarayon doimiy ravishda yangilanib, takomillashtirilib boriladi. Shundan kelib chiqib ushbu

tadqiqot ishida DTS va malaka talablarida keltirilgan kasbiy kompetensiyalar bilan muhandislik paradigmalarini qiyosiy tahlil qilganimizda bo‘lajak muhandislarni kasbiy kompetensiyalar asosida muhandislik paradigmalariga ko‘ra tayyorlash bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Paradigmalar doimiy ravishda innovatsiyalarni tadbiq etishni nazarda tutgan holda takomillashtirilib mehnat bozori talablari sifatida maxsus tanlov fanlarida o‘qitilishi zarur.

1.3. Talabalarda innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga oid kompetensiyalarni shakllantiruvchi fanlar nazariy tavsifi

“Materiallar qarshiligi”, “Mashina va mexanizmlar nazariyasi”, “Materiallar qarshiligi” fanlari umumiy holda “Amaliy mexanika” fanida birlashadi. Bu tasodifiy hol emas chunki, ana shu qayd etib o‘tilgan fanlar muhandislik bilimlarining asosiy mazmuni tashkil etadi va aynan shular orqali talabalarda mos hamda zaruriy innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatni aniqlovchi kompetensiyalar shakllantiriladi. Xususan, “Materiallar qarshiligi” o‘quv fani sifatida sanoatning barcha sohalaridagi mashina va mexanizmlarning eng ko‘p uchraydigan ya’ni eng ko‘p ishlatiladigan detallarining tuzilishi, ishlatilish sohasi, afzalliklari va kamchiliklari, ularni mustahkamlikka hisoblash va loyihalashni o‘rganadi.

1.1-rasmda “Qurilish muhandisligi” yo‘nalishida umumkasbiy fanlarni o‘qitishning ketma-ketligi keltirilgan. Umumkasbiy fanlarni o‘qitish orqali talabalarda muhandislik kasbiy kompetensiyalari shakllantiriladi.



Bu yerda matematik tabiiy-ilmiy, ixtisoslik, qo‘shimcha va tanlov fanlarini o‘rganishlarida umumkasbiy fanlarni ishtiroki mazmun jihatdan o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich singdirilgan. Talabalarda avvalo kasbiy sifatlarni shakllantirish, undan keyin muhandislik kompetensiyalarini shakllantirish orqali kasbiy kompetentligi hosil qilinadi va rivojlantiriladi. Umumkasbiy fanlar matematik tabiiy-ilmiy va ixtisoslik fanlari o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajaradi.

Biz o‘z tadqiqot ishimizda yuqoridagi umumkasbiy fanlar orqali talabalarda innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirdik. Quyida bu fanlarni o‘rganish orqali talabalarda

innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatni rivojlantirishni tasnifini keltiramiz.

“Materiallar qarshiligi” – umumkasbiy va ilmiy fan bo‘lib, unda Materiallar qarshiligi va mexanizmlarini hisoblash, loyihalash tadqiq etiladi, ya’ni u innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga to‘liq javob beradi.

Matematik tabiiy ilmiy fanlar blokidagi fanlardan o‘zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda “Materiallar qarshiligi” fanining o‘zi ham fundamental bilimlarni maxsus fanlar uchun yetkazuvchi hisoblanadi. Uning mazmunini quyidagilar tashkil etadi:

- dalillar, tushunchalar, kattaliklar, fundamental qonunlar, ilmiy-nazariy qonunlar;
- mashinasozlikda keng tarqalgan detallarni tuzilishi, ishlatilish joylari, afzalliklar va kamchiliklari, materiallari ;
- materiallarni mustahkamligi, qattiqligi va ularni hisoblash;
- detallarning konstruktiv o‘ziga xosligi hamda ekspluatatsiya sharoitida turli yuklanishlar ta’sirida ularning o‘zgarishi;
- tashqi muhit o‘zgarishi ta’siridan konstruksiya elementlarini xavfsiz foydalanishni ta’minlash;
- mavjud Materiallar qarshiligini ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash maqsadida tahlil qilish;
- ilmiy-texnikaviy vazifalar yechimini ta’minlovchi yangi Materiallar qarshiligi va mexanizmlarini sintez qilish;
- mustahkamlik, ishonchlilik, chidamlilik talablariga javob beruvchi mexanizm va konstruksiyalarni olish maqsadida detallar hamda yig‘ma birikmalarni loyihalash, konstruksiyalash, modellashtirish bosqichlari, hisoblash metodlarini amalga oshirish;
- o‘ziga xos qoidalar va tafakkur qilish usullari hamda amaliy faoliyat;
- innovatsion muhandislik kasbiy faoliyati muammolarini yechimiga yo‘naltirilgan bilim va ko‘nikmalardan amaliyotda foydalanish.

Mazkur holatlar talaba ijodiy potentsiali hisoblangan zamonaviy innovatsion muhandislik ta’limi talablariga javob berishi lozim. O‘z navbatida “Materiallar qarshiligi” fanining birinchi galdagi vazifasi – o‘ziga xos bilimlarni taqdim etish bilan birga talabalarda innovatsion muhandislik

kasbiy faoliyatiga bo'lgan qobiliyatni mos kompetensiyalar asosida shakllantirish hamdir. Shuni qayd etishimiz lozimki, fanlararo bog'liqlik nafaqat fan bloklaridagi fanlarda namoyon bo'ladi, balki bitta blokda fanlar o'rtasida ham amalga oshadi.

Masalan "Nazariy mexanika" fanini o'zlashtirishda, u fizika kursida o'rganiladigan jism va moddiy nuqtaning statika, kinematika va dinamikasi tushunchalari hamda tasavvurlariga asoslanadi. "Materiallar qarshiligi" kursi fizikadan o'rganilgan "Elastik kuchlar", "Jismlar muvozanati" mavzusi asosida o'qiladi. Nazariy mexanika va fizikadan o'zlashtirilgan bilimlar esa "Mashina mexanizmlar nazariyasi" fanini o'rganish uchun asos bo'ladi. "Nazariy mexanika", "Materiallar qarshiligi", "Mashina mexanizmlar nazariyasi" fanlarida rivojlantirilgan asosiy tushunchalar "Materiallar qarshiligi" fanida transformatsiyalanadi va integratsiyalanadi. Bularning barchasi maxsus fanlarni o'zlashtirish uchun tayanch vazifani bajaradi.

Umumkasbiy fanlardan har birining ta'lim jarayonidagi o'rnini, ahamiyatini va ta'sirini aniqlash mumkin. Xususan, matematika va tabiiy-ilmiiy fanlar orqali taqdim etiladigan bilimlarning iste'molchisi umumkasbiy fanlar bo'lsa, o'z navbatida umumkasbiy fanlar tomonidan taqdim etiladigan bilimlarning iste'molchisi maxsus fanlar sanaladi.

Bakalavrlarni tayyorlashning asosiy ta'lim dasturidagi minimum talablarini tahlil qilib, unga mos ravishda innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarni shakllantiruvchi komponentlar tadqiq qilindi. Ularni shakllanish va rivojlanish bosqichlari mashg'ulotlarni o'tkazish turlarini, ya'ni ma'ruza, laboratoriya, amaliy, kurs loyihasi kabilarni hisobga olgan holda qarab chiqildi. Yuqorida qayd etilgan fanlarni o'rnini baholash qiyin, shu sababli ularning har biri ustida tadqiqot vazifalariga mos ravishda tahliliy yondashuvni amalga oshiramiz.

Jumladan, "Materiallar qarshiligi" fani hozirgi ko'rinishida majmuaviy fan hisoblanadi, undagi tarkib, mashinalar kinematikasi va dinamikasi, ularning tahlili va sintezi muammosi uzviy ravishda optimal loyihalashtirish va boshqarish bilan uyg'unlashib ketgan. Sohaga mo'ljallangan mashinalarni loyihalashtirish bo'yicha maxsus kurslarning ilmiy asosi bo'lib, talabalarning mexanik va matematik tayyorgarligiga asoslanib, DTS

malaka talablari ularning oldiga quyidagilarga ega bo'lish vazifalarini qo'yadi:

- matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan ixtisoslik fanlari o'rtasida ilmiy va nazariy bog'liqlikni ta'minlashi;
- ixtisoslik fanlarini o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi;
- umumkasbiy vazifalarni hal etishda fan va ta'limning zamonaviy muammolariga doir bilimlardan foydalanishga tayyorlash;
- talabalarni berilgan shartlarga ko'ra Materiallar qarshiligini yuritmalari, uzatmalarini optimal loyihalashtirishga o'rgatish;
- Davlat standartlashtirish tizimi va konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi talablari asosida muhandislik chizmalarini tuzish tartibi va qoidalarini; yig'ish chizmalarini o'qish va detallarga ajratish talablarini; yig'ish chizmalarini bajarish talablarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- konstruksiya va konstruksiya elementlarini mustahkamlikka, birklikka, ustivorlikka va chidamlilikka hisoblashni bilish;
- yuritmalarni tuzish, uzatmalarni kinematik hisoblash, uzatma, val va o'qlar, podshipniklar va birikmalarni ishchanlik qobiliyati bo'yicha loyihalovchi va tekshiruvchi hisoblarni bajarish ko'nikmasini shakllangan bo'lishi;
- talabalarni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va ta'limni samarali tashkil etishga o'rgatish lozim.

O'quv materialini bunday tarkiblashtirilishi invariant va variatsiyalanadigan komponentlar bilan birgalikda texnika va texnologiyalar yo'nalishi ta'lim oluvchilarining "Materiallar qarshiligi" kursi dasturini tashkil etadi. Shunday qilib, fan mazmuni invariant komponentni o'zida namoyon etib, u nazariya asosini, qisman empirik bazisni, o'zlashtirilgan qonunlarni, ilmiy-texnik nazariyalarni hamda variatsiyalanadigan komponentni aks ettiradi. Variatsiyalanadigan komponent kasbiy oliy ta'limning turli ta'lim muassasalari uchun muhandislik yo'nalishi mahsuloti ko'rinishiga bog'langan holda bir necha

ko‘rinishga o‘zgarishi mumkin. “Materiallar qarshiligi” fani umumkasbiy fan sifatida muhandislik faoliyatdagi kasbiy sifatlarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi va aynan shu fanga tayangan holda texnologik mashinalar va jihozlar ta’lim yo‘nalishi talabalarini kelgusi kasbiy faoliyatida multifanlararo tizimli fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Ixtisolik fanlari va ishlab chiqarish korxonalari tomonidan kiritilgan paradigmalarga ko‘ra tayyorlash maqsadida keltirilgan maxsus fanlarni o‘qitishda umumkasbiy bilimlarni puxta egallashida “Materiallar qarshiligi” fanining ahamiyati beqiyosdir. Mazkur prinsiplar va holatlarning tadbiqini “Materiallar qarshiligi” fani tuzilmasida ko‘rib chiqamiz (1.3-jadvalga qarang).

“Materiallar qarshiligi” fanining tuzilmasi

1.1-jadval

Asosi		Mohiyati	Natijasi	
Invariant qismi	Variativ qismi	Invariant qismi	Invariant qismi	Variativ qismi
Qattiq jismlar fizikasi (mexanika). Matematika (integral va differensial hisobi, algebra geometriya va boshqalar.). Analitik va chizma geometriyasi. Informatika, muhandislik geometriyasi.	O‘zgaruvchan yuklanishlarda mashina jihozlaridagi mustahkamlikni, titrashga, yeyilishga, ezilishga, buralishga, kesilishga, cho‘zilish va siqilishga chidamlilikni hisoblash metodlari	Innovatsion iqtisodiyotda detallarni va yig‘ma birliklarni mustahkamlik, chidamlilik, raqobatbardoshlik talablariga javob beruvchi mashina va konstruksiyalarni yig‘ish uchun hisoblash metodlari, modellashtirish bosqichlari, konstruksiyalash va loyihalashtirish prinsiplari	Ortiqcha bog‘lanishlarsiz ratsional mexanizmlarni loyihalashtirish metodlari. Konstruksiyalarni optimallashtirish metodlari. Loyihalashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda raqobatbardosh mahsulotni loyihalashtirish metodlari.	Loyiha eskizi. Umumiy ko‘rinishi. Detailarga ajratilishi Yig‘ma chizmasi. Rasmiylashtirishi. Tayyorlash jarayonining texnologik jarayoni.

Umuman olganimizda “Materiallar qarshiligi” fani “Amaliy mexanika” fanining bir bo‘limi hisoblanadi, mazkur fan umumkasbiy fanlarga kirib, innovatsion korxona sharoitida mexanik tizimlarni loyihalashtirishdagi kasbiy masalalarni yechish imkoniyatini beruvchi mantiqiy yakunlangan o‘quv kursi hisoblanadi. U talabalarda har qanday detalni yoki real mexanik tizim agregatlarini ixtiro darajasida loyihalashtirishning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantiradi. “Materiallar qarshiligi” fani bo‘lg‘usi

mutaxassislarni innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashdagi ta'limning o'ziga xos jamlanmasi hisoblanadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar:

1. Innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quv, ilmiy va ishlab chiqarish muassasalarining turli shakllardagi funksiyalarini butun mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish maqsadida birlashtirish lozimligi asoslandi.

2. Innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga berilgan ta'riflarning tahlil qilgan holda, innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatni mamlakat iqtisodining jahonda ilg'or pozitsiyalarni egallashini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-fan-ishlab chiqarish birlashuvining yangi shakllari, ko'rinishlarini aks ettiradigan ta'rifi keltirib o'tdildi.

3. Har bir oliy ta'lim muassasasi o'quv-ilmiy-innovatsion majmua bo'la oladi, mazkur majmuaning vazifasi innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi sifatida iste'mol bozoriga kiritilgan yangi yoki takomillashgan ko'rinishdagi innovatsion mahsulot ishlab chiqarish, amaliy faoliyatda qo'llanadigan yangi yoki takomillashgan texnologik jarayonni shakllantirish, yoxud ijtimoiy xizmat turlariga yangicha yondashuvni ta'minlashdan iborat ekanligi ko'rsatib o'tildi. O'quv-ilmiy-innovatsion majmuaning bosh maqsadini amalga oshirish uchun ta'lim, ilmiy va innovatsion faoliyatlarni takomillashtirish muammolarini majmuaviy tarzda hal etish lozimligi ochib berildi.

4. Zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish, muammoni turli darajalarda tasniflaydigan ilg'or ilmiy texnologiya va texnologik zanjirlarni ishlab chiqish, agregatlash va qo'llash, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, huquqiy va siyosiy shart-sharoitlarni texnologiyalar, texnologik ishlanmalar va innovatsiyalar bilan integratsiyalashtirib, ijtimoiy ehtiyojlar va ustuvorliklarni qondirish uchun majmuaviy yondashuvni amalga oshirish va tatbiq etish kerakligi ko'rsatadi.

5. Zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish, innovatsion muhandislik ta'limiga o'tishning asosiy shartlari sifatida metodologiya va muhandislik ta'limi mazmunini "Fan -muhandislik ta'limi – ishlab chiqarish - innovatsiyalar" yagona milliy kompleksi shakllanishi

doirasida innovatsion bilimlar iqtisodini shakllantiruvchi zamonaviy muhandislik an'analari va yondashuvlari asosida yangilashi innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatni metodik jihatdan takomillashtirishda ahamiyatli ekanligi yoritib berildi.

6. Innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quv, ilmiy va ishlab chiqarish muassasalarining turli shakllardagi funksiyalarini butun mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish maqsadida birlashtirish lozimligi asoslangan.

7. Talabalarni innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashda umumkasbiy fanlarni o'qitish orqali ularni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan umumkasbiy fanlar tavsifi keltirib o'tildi. Xususan, "Materiallar qarshiligi" fani umumkasbiy fan sifatida talabalarda innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantiruvchi muhim jihatlarini o'zida jamlagan, kasbiy masalalarni yechish imkoniyatini beruvchi mantiqiy tugallan predmet ekanligi asoslangan.

II BOB. TALABALARNI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA MUHANDISLIK KASBIY FAOLIYATIGA TAYYORLASH METODIKASINING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

2.1 Zamonaviy muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashda interfaol o'qitish metodlarining turlari va o'ziga xos xususiyatlari

Zamonaviy ilm-fan va texnologiya yuksak sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan davrda muhandislik kasbiy faoliyatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Har qanday mamlakatning iqtisodiy salohiyati, innovatsion rivojlanishi va raqobatbardoshligi muhandislik sohasidagi yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli, muhandislik kasbiy faoliyatining mazmunini chuqur tahlil qilish, uning zamonaviy talablari va yo'nalishlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda muhandislik sohasi nafaqat an'anaviy ishlab chiqarish va texnika sohalarini, balki zamonaviy innovatsion texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar, raqamli platformalar va sun'iy intellekt yo'nalishlarini ham o'z ichiga oladi. Bunday murakkab va tez o'zgarayotgan sohada faoliyat yuritish uchun muhandislar nafaqat chuqur nazariy bilimlarga, balki keng qamrovli amaliy ko'nikma, kreativ fikrlash va tizimli yondashuv salohiyatiga ega bo'lishlari talab etiladi.

Muhandislik kasbiy faoliyatining mohiyati. Muhandislik kasbiy faoliyati — bu tabiatdagi mavjud resurslardan foydalanib, inson ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan texnik tizimlar, texnologiyalar va mahsulotlarni loyihalash, yaratish, ishlab chiqarish, sinovdan o'tkazish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarini qamrab oluvchi murakkab, ko'p bosqichli faoliyatdir.

Muhandislik faoliyatining asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

Loyihalash — yangi mahsulot, tizim yoki texnologiyaning texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish;

Tadqiqot va izlanishlar — mavjud texnologiyalarni tahlil qilish, yangi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish;

Sinov va optimallashtirish — ishlab chiqilgan tizimlarning funktsionalligini tekshirish, kamchiliklarni bartaraf etish;

Texnologik jarayonlarni boshqarish — ishlab chiqarish, montaj, ekspluatatsiya va ta'mirlash ishlarini muvofiqlashtirish;

Texnik xavfsizlik va ekologik nazorat — ishlab chiqarishda xavfsizlik choralarini ko'rish, ekologik talablarga rioya qilish;

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish — yangi mahsulot va texnologiyalarni bozorga tatbiq etish, tijoratlashtirish. Muhandislik faoliyati texnik bilimlar bilan bir qatorda iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va madaniy omillarni ham hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Shu bois, zamonaviy muhandis nafaqat o'z sohasining texnik mutaxassisi, balki keng dunyoqarashga, ijtimoiy mas'uliyatga ega, kompleks fikrlaydigan shaxs bo'lishi kerak.

Muhandislik faoliyatining zamonaviy yo'nalishlari. So'nggi yillarda muhandislik sohasining qamrovi ancha kengaydi. An'anaviy sanoat tarmoqlari bilan bir qatorda quyidagi yangi yo'nalishlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda: Raqamli muhandislik (Digital Engineering) — kompyuter modellari, virtual simulyatsiyalar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda tizimlarni loyihalash va sinovdan o'tkazish;

Mechatronika va robototexnika — avtomatlashtirilgan va intellektual boshqaruv tizimlarini yaratish;

Energiya samaradorligi va yashil texnologiyalar — ekologik toza va energiyani tejovchi tizimlarni ishlab chiqish;

Materialshunoslik va nanoinjining — yangi yuqori samarali materiallar va strukturalarni yaratish;

Biotibbiyot muhandisligi — tibbiyot uchun zamonaviy uskunalar, biomateriallar va diagnostik tizimlar ishlab chiqish;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash — muhandislik jarayonlariga zamonaviy IT-yechimlarni joriy etish.

Muhandislik kasbiy faoliyatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar

Bugungi kunda muhandislik faoliyatida samarali ishlash uchun quyidagi kompetensiyalar muhim hisoblanadi:

Chuqur nazariy bilimlar — matematika, fizika, kimyo, informatika, texnika asoslari;

Amaliy ko'nikmalar — texnik loyihalash, dasturlash, sinovdan o'tkazish, muhandislik hisob-kitoblari;

Muammoli vaziyatlarda yechim topish qobiliyati — kreativ yondashuv va tizimli fikrlash asosida masalalarni hal qilish;

Jamoaviy ishlash ko‘nikmalari — loyiha guruhlarida hamkorlikda ishlash, kommunikatsiya madaniyati;

Texnik xavfsizlik va ekologik ong — xavfsizlik me'yorlariga rioya qilish, ekologik talablarga e'tibor;

Axborot texnologiyalarini bilish — zamonaviy IT vositalari, raqamli dasturlar va simulyatsiyalar bilan ishlash;

Moslashuvchanlik va uzluksiz o‘qish qobiliyati — texnologik yangiliklarga moslashish, yangicha bilimlarni tezda egallash.

Bundan tashqari, zamonaviy muhandislik kasbiy faoliyatida quyidagi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi:

Innovatsion yondashuv — yangilik yaratishga intilish, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish;

Ekologik mas'uliyat — ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirish;


Ijtimoiy mas'uliyat — yaratilayotgan mahsulot va texnologiyalarning inson salomatligi va jamiyat farovonligiga xizmat qilishi.

1. Interfaol o‘qitish metodlarining mohiyati

Interfaol o‘qitish metodlari — bu talabalarning bilim olish jarayoniga faol jalb etilishini, mustaqil fikrlashini va jamoaviy ishlashini ta'minlaydigan zamonaviy pedagogik yondashuv hisoblanadi.

Ushbu metodlarning asosiy tamoyillari:

- ✓ Talabalarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish;
- ✓ Amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- ✓ Jamoaviy ish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- ✓ Muammoli vaziyatlarni hal qilishga o‘rgatish;
- ✓ Innovatsion fikrlashni rivojlantirish.



2.1-rasm. Interfaol o'qitish metodlarining turlari

2. Interfaol metodlarning asosiy turlari va taqqoslovchi jadvali

2.1-jadval

№	Metod nomi	Mohiyati	Afzalliklari	Kamchiliklari
1	Muammoli o'qitish (PBL)	Real muammolar asosida bilim berish	Analitik fikrlashni rivojlantiradi	Tayyorlanish ko'p vaqt talab etadi
2	Loyiha asosidagi o'qitish	Amaliy loyiha ustida ishlash	Amaliy ko'nikma va ijodkorlikni kuchaytiradi	Murakkab nazorat mexanizmini talab qiladi
3	Rolli o'yin va imitatsiyalar	Real vaziyatlarni modellashtirish	Kasbiy muhitga tayyorlaydi	Texnik ta'minot zarur bo'ladi
4	Case-study (Vaziyatli tahlil)	Muammoli holatlarni tahlil qilish	Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi	To'g'ri holat tanlanishi muhim
5	Aqliy hujum (Brainstorming)	Tezkor g'oya ishlab chiqish	Innovatsion fikrlashni kuchaytiradi	Ba'zan aniq yechim topilmasligi mumkin
6	Debat va munozaralar	Fikr almashish va asoslash	Muloqot va ijtimoiy kompetensiyalar rivojlanadi	Passiv talabalarni jalb qilish qiyin
7	Klaster va grafik usullar	Axborotni vizual tizimlashtirish	Axborotni tez tahlil qilish imkonini beradi	Har doim ham chuqur tahlil bo'lmasligi mumkin

3. Interfaol metodlarning umumiy xususiyatlari

Talabani faol ishtirokini ta'minlaydi;

Tezkor fikrlash va mantiqiy xulosaga kelishga o'rgatadi;


Jamoaviy hamkorlik muhitini yaratadi;

Amaliy vaziyatlarda bilimlarni sinovdan o'tkazishga yordam beradi;

Mustaqil qaror qabul qilish malakasini kuchaytiradi.

4. Diagramma: An'anaviy va Interfaol metodlar samaradorligi taqqoslash

Mana bu jadvalda An'anaviy va Interfaol metodlarning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari taqqoslangan:



2.2-rasm. An'anaviy va Interfaol metodlar samaradorligi taqqoslash

Ko'k rang — An'anaviy metodlar;

sabzi rang — Interfaol metodlar.

2.2-jadval

Ko'rsatkichlar	An'anaviy metodlar	Interfaol metodlar
Talabaning faolligi	40%	85%
Mustaqil fikrlash	35%	80%
Amaliy ko'nikmalar shakllanishi	30%	90%
Jamoaviy ishlash qobiliyati	25%	85%
Kasbiy tayyorlik	40%	88%
Texnik muammolarni hal qilish salohiyati	30%	87%

5. Vizual ko‘rinishda Interfaol metodlar turlari diagrammasi

- ❖ Muammoli o‘qitish (PBL)
- ❖ Loyiha asosida o‘qitish
- ❖ Rolli o‘yin va imitatsiyalar
- ❖ Case-study (Vaziyatli tahlil)
- ❖ Aqliy hujum (Brainstorming)
- ❖ Debat va munozaralar
- ❖ Klaster va grafik usullar

6. Interfaol metodlarning muhandislik ta’limidagi o‘rni. Muhandislik ta’limi uchun interfaol metodlar:

- ✓ Real texnik muammolar asosida o‘rganishga imkon beradi;
- ✓ Talabaning mustaqil qaror qabul qilishini kuchaytiradi;
- ✓ Amaliyotga tayyorgarlik darajasini oshiradi;
- ✓ Zamonaviy texnologiyalarni tezroq o‘zlashtirishga yordam beradi;
- ✓ Texnik tafakkur va innovatsion yondashuvni shakllantiradi.

2.2 Talabalarni pedagogik-psixologik va interfaol metodlar asosida muhandislik kasbiga oid ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni.

Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va texnologik inqilob sharoitida muhandislik sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislar tayyorlash masalasi eng dolzarb vazifalardan biridir. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligi, eng avvalo, pedagogik va psixologik yondashuvlarning to‘g‘ri tanlanishi va amaliyotga tatbiq etilishiga bog‘liq.

Agar ilgari kasbiy tayyorlov asosan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklangan bo‘lsa, hozirgi zamonaviy yondashuvlarda shaxsning ijodkorligi, mustaqil qaror qabul qilish salohiyati, kommunikativlik va moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalarini rivojlantirish asosiy o‘rinni egallaydi. Bunday kompleks yondashuv esa pedagogik va psixologik tamoyillarni uyg‘unlashtirishni talab etadi.

Mazkur bo‘limda talabalarni muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash jarayonining pedagogik-psixologik asoslari tahlil qilinadi, ilg‘or nazariyalar va amaliy yondashuvlar yoritiladi.

Kasbiy tayyorlash tushunchasining mohiyati

Kasbiy tayyorlash — bu shaxsda muayyan kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va psixologik tayyorgarlikni shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy tajribasini kengaytirish, psixologik jihatdan kasbiy vaziyatlarga tayyorlashni qamrab oladi.

Kasbiy tayyorlashning asosiy tarkibiy qismlari:

- Nazariy tayyorlik;
- Amaliy ko‘nikmalar;
- Kasbiy motivatsiya va qiziqish;
- Mustaqil qaror qabul qilish va muammoni hal qilish salohiyati;
- Psixologik barqarorlik va moslashuvchanlik;
- Innovatsion fikrlash va kreativ yondashuv.

Muhandislik sohasida kasbiy tayyorlov ayniqsa murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, bunda fundamental fanlar asosida texnik va amaliy bilimlar, shuningdek, shaxsiy-psixologik xususiyatlar shakllantiriladi.

Talabalarni kasbiy tayyorlashda pedagogik asoslar

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik tamoyillar va texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Quyidagi asosiy pedagogik yondashuvlar ajratib ko‘rsatiladi:

1. Kompetensiyaviy yondashuv

Kompetensiyaviy yondashuvga ko‘ra, talaba faqat bilim egallashi emas, balki amaliyotda ularni qo‘llay olishi, aniq kasbiy vazifalarni hal qila olishi lozim. Muhandislik sohasida quyidagi kompetensiyalar muhim hisoblanadi:

Kasbiy-texnik kompetensiyalar;
Tizimli va kreativ fikrlash kompetensiyasi;
Muammoli vaziyatlarda yechim topish salohiyati;
Kompyuter savodxonligi va texnologik kompetensiyalar;
Ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalar.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim

Talabaning individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida ta’lim jarayonini tashkil etish. Muhandislik ta’limida bu

yondashuv innovatsion g'oyalarning paydo bo'lishi, shaxsiy tashabbuskorlik va ijodiy fikr yuritishni rag'batlantiradi.

3. Faol va interfaol o'qitish metodlari

Talabalarni faollikka jalb qilish, ularni muammoli vaziyatlarga duchor qilish, amaliy mashg'ulotlar va loyihalarda faol ishtirok etishini ta'minlash muhimdir. Bunday yondashuv kasbiy tayyorlov samaradorligini oshiradi.

4. Modullashtirilgan ta'lim tizimi

Kasbiy tayyorlovni modul asosida tashkil etish, ya'ni har bir modul ma'lum bir ko'nikma yoki bilim sohasiga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu esa ta'lim mazmunining tizimliligi va bosqichma-bosqichligini ta'minlaydi.

Talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonining psixologik asoslari

Muhandislik faoliyati murakkab intellektual va amaliy faoliyat turi bo'lib, talabalardan yuqori psixologik tayyorgarlikni talab etadi. Quyidagi psixologik omillar talabalarning kasbiy tayyorligi uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

1. Kasbiy motivatsiya va qiziqish

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning kasbiy tayyorligi ularning kasbga bo'lgan ichki motivatsiyasi va qiziqishi bilan bevosita bog'liq. Muhandislik faoliyatiga mehr, texnikaviy ijodkorlikka qiziqish, muammolarni yechishga ishtiyoq — bular muvaffaqiyat garovidir.

2. Intellektual salohiyat va kreativ fikrlash

Muhandislik kasbiy faoliyati intellektual muammolarni hal qilish, yangi yechimlar ishlab chiqishni talab qiladi. Talabalarda analitik tafakkur, tizimli yondashuv va kreativ fikrlash salohiyatini rivojlantirish psixologik tayyorlovning ajralmas qismidir.

3. Emotsional barqarorlik va stressga chidamlilik

Muhandislik faoliyatida murakkab va kutilmagan vaziyatlar ko'p uchraydi. Talabalarni psixologik jihatdan stressga bardoshlilik, muammolarni bosim ostida hal qilish qobiliyatiga tayyorlash zarur.

4. Ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar

Loyihalarda samarali ishlash, jamoada hamkorlik qilish, rahbariyat va mijozlar bilan muloqot qilish muhandislik sohasining ajralmas qismidir. Shuning uchun kommunikativ ko'nikmalar va ijtimoiy moslashuvchanlik muhim hisoblanadi.

Pedagogik-psixologik integratsiya zarurati

Talabalarni muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashda pedagogik va psixologik yondashuvlar uzviy integratsiyada bo'lishi kerak. Bu integratsiyaning afzalliklari quyidagilardan iborat:

✓ Bilim, ko'nikma va malakalarni chuqurroq o'zlashtirish imkoniyati;

✓ Shaxsiy rivojlanishni ta'minlash;

✓ Innovatsion va ijodiy faoliyatga tayyorlik;

✓ Kasbiy identifikatsiya va motivatsiyaning shakllanishi;

✓ Stressga bardoshlilik va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirish.

Shu bois, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni aynan pedagogik va psixologik integratsiyani ta'minlash uchun eng samarali yo'l hisoblanadi.

Zamonaviy muhandislik ta'limi innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. An'anaviy ta'lim shakllari talabalarni real kasbiy muammolarni hal qilishga yetarlicha tayyorlamaydi. Shu bois, interfaol metodlardan foydalanish, ayniqsa, muhandislik yo'nalishida, ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan bo'lishi zarur.

Interfaol metodlar muhandislik ta'limining nazariy asoslari, pedagogika, psixologiya, texnika va texnologiya sohalarining o'zaro integratsiyasiga tayangan holda shakllanadi.

1. Interfaol metodlardan foydalanishda asosiy nazariy yondashuvlar. Muhandislik ta'limida interfaol metodlardan foydalanish jarayoni quyidagi ilmiy-nazariy yondashuvlarga asoslanadi:

✓ Konstruktivistik yondashuv

✓ Kompetensiyaviy yondashuv

✓ Faollik va mustaqillik tamoyillari

✓ Amaliy faoliyat asosida o'qitish nazariyasi

✓ Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish modeli

Konstruktivistik yondashuv — talaba bilimlarni tayyor shaklda emas, balki faol izlanish, muammoli vaziyatlar va mustaqil tahlil orqali egallaydi.

Kompetensiyaviy yondashuv — bilim, ko‘nikma va amaliy malakalar uyg‘unligi asosida kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishni nazarda tutadi. Faollik va mustaqillik tamoyillari — talabanning bilim olish jarayonida mustaqil fikrlashi, qaror qabul qilishi va yangicha yondashuvlarni qo‘llashi ta’minlanadi.

2. Muhandislik ta’limida interfaol metodlar asoslanadigan asosiy pedagogik nazariyalar

Quyidagi nazariyalar muhandislik ta’limida interfaol metodlarni qo‘llashda asos bo‘ladi:

2.3-jadval

№	Nazariya nomi	Mazmuni	Muhandislik ta’limidagi ahamiyati
1	Deweyning tajriba asosidagi o‘qitish nazariyasi	Amaliyot va real hayotdagi vaziyatlar asosida o‘rganish	Muhandislikdagi real muammolarni hal qilish uchun tayyorlaydi
2	Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi	Bilimlar izchil rivojlanadi, murakkablashadi	Texnik tafakkurni bosqichma-bosqich shakllantiradi
3	Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi	Ta’lim ijtimoiy muhit va muloqot orqali samarali bo‘ladi	Jamoaviy ishlash va loyiha faoliyatida qo‘llanadi
4	Brunerning faoliyatga asoslangan o‘qitish nazariyasi	Faoliyat orqali bilish jarayoni kuchayadi	Muhandislik laboratoriya va amaliy ishlarini samarali o‘rganishga yordam beradi
5	Bandura sotsial-o‘rganish nazariyasi	Taqlid, kuzatish va ko‘nikma shakllantirish orqali bilim egallash	Ustoz va tengdoshlar orqali kasbiy ko‘nikmalarni o‘rganishga asos yaratadi

3. Interfaol metodlardan foydalanishning asosiy tamoyillari. Muhandislik ta’limida interfaol metodlardan foydalanish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

✓ Amaliyot va nazariyaning uzviyligi;

- ✓ Talabanning faol ishtiroki va mustaqil fikrlashi;
- ✓ Kasbiy muammolar asosida o‘qitish;
- ✓ Innovatsion va kreativ yondashuvlarni rag‘batlantirish;
- ✓ Texnik va texnologik muhitga mos moslashuvchanlik.

4. Muhandislik ta’limida interfaol metodlarni tanlash mezonlari.

Quyidagi mezonlar asosida interfaol metodlar tanlanadi:

- ✚ O‘quv fanining texnik mazmuni;
- ✚ Talabalarning bilim darajasi va kasbiy ehtiyojlari;
- ✚ O‘qitish jarayonining texnik, texnologik imkoniyatlari;
- ✚ Amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlarining mavjudligi;
- ✚ Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish zarurati.

5. Muhandislik ta’limida interfaol metodlarning natijalari

- ✓ Texnik tafakkur va analitik fikrlash rivojlanadi;
- ✓ Innovatsion yondashuv shakllanadi;
- ✓ Amaliy ko‘nikmalar kuchayadi;
- ✓ Talabalar kasbiy faoliyatga tayyorlanadi;
- ✓ Mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasi oshadi.

Rivojlangan davlat iqtisodiyoti ko‘pchilik holatlarda istiqbolli ilmiy-texnik g‘oyalar kelishi va amalga tadbiiq tezkorligiga bog‘liq bo‘ladi. Buning uchun ilmiy-tadqiqot ijodkorlik ishi natijadorligini keskin oshirish lozim. Ishning muvaffaqiyati ko‘pincha mutaxassislar malakasi, ularning murakkab ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va tashkiliy masalalarni ijodiy xal qilish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Bunday mutaxassislarni shakllantirish muammosi asosan fundamental, amaliy tadqiqotlar hamda oliy ta’lim tizimi doiralarida hal qilinadi. Oliy ta’lim tizimida ilmga qiziquvchi talabalarni aniqlash va tanlash, ularni tarbiyalash yo‘lga qo‘yilishi lozim. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishning didaktik asoslarini takomillashtirish zaruriyati paydo bo‘ladi.

Ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega talabalarni tarbiyalashni ularni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish, natijalarni ishlab chiqarishga tadbiiq qilish orqali amalga oshirish mumkin.

Talabalarni mutaxassislik- ijodiy yo‘naltirish ularni uslubiyat asosi va ilmiy ijodkorlik tajribasini o‘rgatish orqali bajariladi.

Shu sababli oliy ta‘lim muassasalarida talabalarda ilmga yo‘naltirilganlik ijodiy qobiliyatni shakllantirish orqali amalga oshirishni o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi. Turli mualliflar tomonidan e‘lon qilingan kasbiy kompetensiya muammolari to‘g‘risidagi ilmiy maqolalarda ijodiy izlanish eng asosiy sifatlardan biri ekanligi qayd etiladi. Mazkur tadqiqotimizda mutaxassisning kasbiy kompetensiyasida ijodkorlik masalasiga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, u mutaxassisda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishni nazarda tutadi. Ijodkorlik haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo ijodkorlikning mohiyatini mukammal tahlil qilib olish zarur. Ijodkorlik mohiyatini o‘rganish, aytish joiz bo‘lsa, o‘ta murakkab masala sanaladi, chunki uning zimmasiga inson va tabiatni o‘rganishning muhim metodologik masalalarini yechishdek vazifa qo‘yiladi. Ijodkorlikni rivojlantirish manbalari, biologik va ijtimoiy, ob‘ektiv va sub‘ektiv, individual va jamoa o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni bu jarayonlar o‘z ichiga qamrab oladi. Sh.S.Sharipov ixtirochilikni «tegishli idoralar tomonidan patentlar bilan tasdiqlanadigan yangi texnik yechimni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyat turi, ixtirochilik ijodkorligi esa bu jarayonning shaxsdagi zehnlilik, topqirlik, mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi ijodkorlik sifatlari bilan bog‘liq umumiy tavsifi», deb ta‘riflagan. G.Gegel dunyo ijodiy faoliyat umumiy sxemasini “mutloq g‘oya” deb atab, birinchi marta turli faoliyat asosini rivojlanish asosiga qarama –qarshi ekanligini ko‘rsatgan edi. Ijodkorlikning asosiy qirralari B.C.Bibler, J.Brunera, A.V.Brushlinskoy, L.S.Vygotskiy, I.Ya.Galperin, I.P.Gilford, V.V.Davydov, G. Klyaus, Yu.N.Kulyutkin, A.N.Leontev, A.M.Matyushkin, J.Piaje, Ya.A.Ponomarev, K.Popper, S.L.Rubinshteyn kabi mashhur faylasuflarning asarlarida keltirilgan. O.V.Afanasev va V.V.Zotovlarning asarlarida ijodkorlik murakkab, ko‘p qirrali, ijtimoiy-ma‘naviy xodisa sifatida ko‘rilgan. M.S. Kagan, B.M. Kedrov, V.F.Ovchinnikov va boshqalar asarlarida ijodkorlik, uning tuzilishi, va shaxs rivojlanishida ijodkorlik ta‘siri o‘rganilgan.

M.G.Yaroshevskiy ijodkorlik – yangilik yaratishdir deb ta‘kidlab o‘tgan edi. Uni shunday tushunish kerakki, bunda sub‘ektning

tasavvurlari yangilanadi va hulq atvori, u yaratgan va in'om etayotgan mahsulotlari ham yaxshilanadi»[56]. O'xshash ta'rif va belgilarni u yoki bu shaklda boshqa ko'plab ijodkorlar faoliyatlarida ham kuzatish mumkin. Masalan, S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, ijodkorlik qandaydir yangilik yaratuvchi faoliyatdir. Yangilik olib kirish ijodkor yuksalishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, fan va madaniyat taraqqiyoti tarixida ham o'z izini qoldiradi .

Ijodkorlik «qayta shakllantirish» – mavjud shakl unsurlari yordamida yangi shakl yaratish demakdir. «Qayta shakllantirish» ijodkorligi o'z ichiga oldindan ma'lum bo'lgan shaklga o'xshagan yangi shaklni kashf etishdir. Ijodkorlik «bir shakldan ikkinchi shaklga o'tkazish» – bu jarayonda qoidalarining yangi qolipi, chizmasi, ma'lum tuzilmalarning yangi turi yuzaga keladi. Yangi yaratilgan shakllar eski shakllarning yangicha talqini bo'lmaydi. Ijodkor shaxs qoidalar yaratilishi bilanoq, ularga suyanagan holda, yangi qoidalar yaratish ustida ish boshlaydi. Undan so'ng faoliyat shakllarini ochish, oldin hech qachon qo'llanilmagan shakllarni kashf etish uchun bosh qotiradi. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy-pedagogik ijodkorligi rivojlanishi haqida fikr bildirar ekanmiz, bu borada M.G.Yaroshevskiy tomonidan berilgan xulosalar diqqatga sazovorligini aytish joiz. Olimning fikricha ijodkorlik jarayoniga tizimli munosabat uch jihatli tarkib va ularning o'zaro uzviyligida o'rganishni taqozo etadi. Ular narsa va hodisalar, ijtimoiy va shaxsga taalluqlilik tarkiblardan iboratdir: narsa va hodisalar tarkibi - evristika, narsaning yangi obrazini yaratuvchi ruhiy «mato», so'ngra u ilmiy matnga aylanadi va yangi g'oyalar, nazariyalar va kashfiyotlar sifatida yuzaga chiqadi. Bu evristikalar: analoglar, metaforalar, qiyoslash, modellardan iborat bo'lib, odatda fikrlash mazmunini tashkil etadi va vizual shakl ga ega bo'ladi; ijtimoiy tarkib - bunday ijodkorlik kognitiv-dialogik «dastlabki faolligi» sifatida ko'zga tashlanadi. Shunday qilib, opponentlar, muqobilliklar ham ijodiy jarayonlarning avj olishiga turtki beradi; shaxsga oid tarkib - shaxsiy intilish, ichki maqsadli istak va ijod sub'ektining xususiy sifatlaridan iborat bo'lib, ijodiy jarayonlarni uzluksiz tashkil etishda yuzaga chiqadigan yangi belgilar, o'zgarishlardan iborat» .

Pedagogikada ijodkorlik nazariyasining asoslarini ishlab chiqish, faoliyat turlarida ijodkorlik jarayonlarining qonuniyatlarini tadqiq qilishda psixologiya fani beqiyos ahamiyat kasb etadi. Jumladan, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, B.M.Teplov kabi psixolog olimlarning ishlarida ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy fikrlash muammolari chuqur tadqiq qilingan». Insonning ijodkorlik qobiliyati shaxs sifati hisoblanib, psixolog olimlarning fikriga ko'ra u to'rtta guruhga ajratiladi:

- intellektual sifatlar: dunyoqarash, eruditsiya, fikrlashning ijodiy xususiyatlari (chuqurligi, kengligi, tanqidiyligi hajmliligi, nomantiquiy fikrlay olish);

- mahsullik sifatleri: egallangan bilimlar hamda metodlarni sintezlay olish ko'nikmasi, tadqiqotlarni amalga oshirish metodologiyasini egallanganlik;

- irodaviylik sifatleri: o'z faoliyatini rejalashtirish va sharoitga moslashtirib borish, o'z-o'zini nazorat qila olish, g'oyalarni rivojlantirib, aniq natijaga yetkaza olish;

- hissiy-ijodiy sifatlar: intuitsiya, tasavvur, fantaziya»[59].

Birinchi sifat I.Ya.Lernerning nuqtai nazariga bog'liq. Unga ko'ra, ijod bilan shug'ullanuvchi kishilarning fazilatlari chegarasini o'lchab bo'lmaydi, ular haqida fikr aytish uchun ana shu faoliyat tabiatini anglamay, unga monand xislatlarni bilmay, aniqrog'i, uning ijodiy faoliyat jarayonlarini o'rganmay turib gap yuritish mumkin emas. Shu munosabat bilan tadqiqotchi ijodiy faoliyatning protsessual chegaralarini ajratib ko'rsatadi:

- mustaqil ravishda uzoq va yaqin, ichki va tashqi bilimlar tizimi va mahoratni yangi vaziyatga ko'chiradi;

- an'anaviy vaziyatlarda yangi muammolarni his etadi;

- ob'ekt an'anaviy funksiyasi o'rniga yangisini tasavvur qiladi;

- masalalarni yechishda muqobil yechimlarni ham hisobga oladi;

- yangi muammolarni hal etishda faoliyatning oldindan ma'lum bo'lgan usullari va yo'llarini qayta ishlaydi;

- prinsipial yangi yo'llar topish niyatida eskirib qolgan yo'llardan voz kechadi.

Inson omilini faollashtiruvchi samarador zahiralaridan biri jamiyat hayotining barcha jabhalarida, ishlab chiqarishda, texnikada, fanda, ta'lim va boshqaruvda ijodkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Shu bois ijodiy muammolarni jamoa bo'lib yechish sharoitlari va tashkil etish shakllari, muammolari kun tartibidagi dolzarb masalalardir. T.A.Sidorchukning ilmiy ishlarini tahlil etib, tizimli ijodiy fikrlash shakllanishining muvaffaqiyati kasbiy ta'lim jarayonlarida ko'pincha ijodiy fikrlashning asosiy unsurlari shakllanishi darajasiga bog'liq ekanligi ko'rinadi hamda shaxs shakllanishining dastlabki damlarida boshlanadi, degan fikrni olg'a suradi»[47]. Ana shunday unsurlar tarkibiga quyidagilar kiradi: tahlil qilish qobiliyati, umumlashtirish, qiyoslash, sabab va oqibatlar o'rtasidagi bog'liqlikni bilish, tanqidiy fikrlash va bahslashish, voqealar rivojini oldindan taxmin qilish, har qanday tizim yoki ob'ektga o'tmish, bugungi kun va kelajak nuqtai nazaridan yondasha bilish, harakatlar algoritmini terish, yangi g'oyalarni kuchaytirish va yechimlarni grafik obraz shaklida aks ettirish kabilardir. V.I.Samoxvalovanning ta'kidlashicha, ijodkor shaxsi o'zini namoyon qilish uchun qudratli kuchga ega bo'lgan odamdir, ammo:

- birinchidan, bu energiyani yangilik yaratish uchun safarbar qiladi;
- ikkinchidan, ruhiyatida yuzaga kelgan vulqonni jilovlay oladi».

Ijodkor odam ijod qilishga chanqoq bo'ladi.

Uni amalga oshirish uchun qat'iyat bilan ishlashni yaxshi biladi.

M.Maxmutov ijodiy faoliyatni quyidagicha ta'riflagan: «Ijodiy faoliyat – evristik faoliyat bo'lib, uning mohiyati muammoni tez tushunishidan, asosiy g'oya, tushunchaning mohiyatini anglab yetishidan, harakat usulini to'satdan topishidan iborat. Bunday faoliyat yuqori jo'shqinlik, sub'ektning ob'ektga katta qiziqishi bilan tavsiflanadi». Fikrimizcha, mutaxassisning kasbiy-pedagogik ijodkorligining shakllanishida ham protsessual, ham shaxsning ijodiy fazilatlari rivojlanib borishi lozim. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish orqali talabalarda muhandislik fikrlashini rivojlantirish va kreativ fikrlashga ko'nikma xosil qilishda yuqorida keltirilgan muloxazalar orqali quyidagi asosiy tadqiqot yo'nalishlarini belgilab olamiz:

- “ilmga qiziquvchi” talabalarni aniqlash va tanlash, ularni tarbiyalash yo'lga qo'yilishi lozim;

- ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish, ular erishgan natijalarni ishlab chiqarishga tadbqiq qilish;
- uslubiyat asosi va ilmiy ijodkorlik tajribasini o‘rgatish.

Shu o‘rinda ijod va ijodkorlik so‘zlariga tarif berishni lozim topdik.

Ijod – insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyatidir. Ijod eng avval inson tasavvurida paydo bo‘ladi, so‘ngra bu yuzasidan olib borilgan izlanishlar, kuzatishlar tahlil qilinib, mantiqiy xulosalar chiqariladi. Ijod fan-texnikani, madaniyatni boyitadi, rivojlantiradi.

Ijodkorlik – insonning borliqni bilish va o‘zgartirishga qaratilgan ongli, maqsadli faoliyati hisoblanib, buning natijasida yangi , avvaldan mavjud bo‘lmagan, jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini yaxshilashga yo‘naltirilgan buyumlar, texnik ishlanmalar va boshqalar yaratiladi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar orasida ijodiy faoliyatga moyil talabalarni aniqlash birinchi o‘qish kunidan amalga oshiriladi va seleksiya ishlari olib boriladi. Bu ish belgilarni ajratib olish va baholash orqali amalga oshiriladi (2.4-jadval).

2.4-jadval

Belgilar	Baholar		
	O‘rta	Yaxshi	A‘lo
Oliy o‘quv yurtiga kirish imtihonlarida ko‘rsatgan natijalari tahlili	-	+	-
Oldindan erishgan yutuqlarini aniqlash	-	-	+
Talabaning qiziqish doirasini aniqlash	-	-	+
AKT bo‘yicha ko‘nikmasi	-	+	-
Xorijiy tillarni bilish darajasi	+	-	-

2.4-jadval. Talabalarni orasidan ijodga moyilligi bor va qobiliyatli talabalarni aniqlashning belgilash va belgilarni baxolash usuli.

Yuqorida keltirilgan belgilarga ajratish va baholash jadvalini har bir talaba kesimida o‘rganib olamiz. Ushbu vazifani bajarishda fakultet, kafedra va tyutorlar hamkorlikda ishlashi lozim. Olingan statistik ma’lumotlar tahlil qilinadi va talabaning ijodkorlik doirasi aniqlanib, kerakli yo‘nalish bo‘yicha ilmiy rahbar belgilanadi.

Ilmiy rahbar talabaga rivojlantirish rejasini tuzishga yordam beradi va uni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qiladi. Talabaning ijodkorlik doirasi aniqlanib rivojlantirish rejasi asosida faoliyati yo‘naltiriladi. Birinchi kurs talabasini ilmiy tadqiqotlarga jalb qilishni ko‘rib chiqaylik. Yuqorida keltirilgan belgilar va baholash tizimi orqali talabaning kuchli va zaif tomonlari aniqlab olinadi. Bajariladigan ishlar ketma-ketligini “zinapoya” usulida ko‘rib chiqaylik (2.3-rasm).



2.3-rasm. Talabani ijodkorlik qobiliyatini aniqlashning belgilar va belgilarning baholanishinini “zinapoya” usulida tasvirlanishi

Albatta yuqorida keltirilgan fikrlarni amalga oshirishda talabaning qiziqishini e‘tiborga olish, uning ijodkorlik doirasidan chiqib ketmaslik muhim o‘rin tutadi. Chunki talabaga uning imkoniyatidan ortiq vazifani berish yoki g‘oyalarini hisobga olmaslik unda kreativ fikrlash qobiliyatining “bo‘g‘ilishi”ga va shablon asosida fikrlaydigan bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi. Talabaning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga ilmiy yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi faol ijodkor shaxs shakllantirishda mavjud ilmiy ishlanmalarni tahlil qilish asos bo‘lib xizmat qila olmaydi, chunki, ushbu ishlarda muammoga tizimli yondashish yetarli darajada emas, xorijiy va respublika olimlarining ishlanmalari to‘liq taqqoslash ishlari amalga oshirilmaganligi hamda mavjud ishlanmalarda keltirilgan jihatlar hayotiy realizmga mos

kelmasligidir. Shu tarzda, xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ilmiy yo'naltirilgan talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasi va an'analari hozirgi kungacha tadqiqot mavzusi sifatida pedagogikada ko'rib chiqilmagan, bu esa mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida jahon ta'lim standartlariga mos keluvchi mutaxassislar tayyorlash talablariga javob bermaydi.

Yuqoridagi fikrdan ushbu ishning tadqiqoti muammosi shakllanadi, ya'ni talabalarni ijodkorlikka yo'naltirishning, kreativ rivojlantirishning zamonaviy an'analari qanday va unda to'plangan ijobiy tajribani yurtimizda amalga tadbiiq qilish imkoniyati bormi?

Ilmiy faoliyat jarayonida talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi murakkab va ko'p qirrali muammo bo'lib, nazariy fikrlash, yangi uslub va yondashish, konstruktiv g'oyalarni oldinga surish hamda tajribada tekshirishni talab qiladi. Xorijiy olimlar tadqiqotlari ko'pincha tajribalarga tayanish va o'z tajribasida o'rnatilgan chegaradan chiqmaslikka intilish holatlari kuzatiladi. Ko'pchilik tajribalarda qismlarga ajratib o'rganishga bog'liq va oliy ta'lim muassasalaridagi xayotiy realizm natijalarini umumlashtirishdan uzoqlashgan. Natijada ko'plab tadqiqotlar aniq bir holatga bog'langan va umumlashtirish imkoniyatini bermaydi. Mavjud ishlarni o'rganish talabalarni ilmiy faoliyatga yo'naltirib ijodiy qirralarini ochish va kreativ fikrlashga o'rgatishga yondashish usullari juda keng ekanligini ko'rsatadi. Biroq shuni aytib o'tish kerakki, ushbu tadqiqotlar ilmiy faoliyatga yo'naltirish orqali faol ijodiy shaxs shakllantirishi uchun nazariy konsepsiya rolini o'ynay olmaydi:

- faol ijodiy shaxs shakllantirish muammosini o'rganishga tizimli yondashuv yo'qligi;
- xorij va mamlakatimiz tadqiqotlarini taqqoslash ishlari yetarli xajmda amalga oshirilmagan;
- mavjud ishlanmalarda keltirilgan usullar xayotiy realizmga va jamiyatga mos kelmasligi.

Oldinda qo'yilgan savolni o'rganish davomida ilmiy faoliyatga yo'naltirish orqali ijodkorlikni rivojlantirish kabi murakkab tadqiqot ob'ektini qaysi uslubda tadqiq qilish kerakligi aloxida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu yordamchi uslub faqatgina olingan ma'lumotlarni tizimlashtirish


va umumlashtirish vositasi emas balki ma'lumot olish vositasi bo'lishi kerak. Shuni ta'kidlash lozimki, faqatgina ob'ekt elementlari doirasida tahlil o'tkazish, ularning tizimli belgilari va xossalarini izlash, tadqiqotdan ko'zlangan maqsadga olib kelmaydi. Tahlil tadqiqot ob'ekti – talabalarni ilmiy faoliyatga yo'naltirishni tashkil qilishni nazariy ko'rsatib beruvchi maxsus uslubiy ish bilan to'ldirilishi lozim. Talabalarni ilmiy faoliyatga yo'naltirishni tashkil qilishni maqsadli, tizimli va funksional tadqiq qilish genetik tahlil bilan yagona konsepsiya hosil qilishi kerak. Demak, tizimli yondashish uslubiyati tizimli-tarixiy jixatlarni o'z ichiga olish kerak.

Tizimli – genetik taxlil umumiy holatda an'anaviy analitik usulga nisbatan ancha murakkab. Talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilish orqali kreativ fikrlashga yo'naltirish AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqa davlatlarda o'tgan asrning 60 yillarida boshlandi. Buning sababi ushbu mamlakatlarda iqtisodiy, texnik, ilmiy va madaniy rivojlanish alohida hodisa sifatida ijodkor shaxslarning kreativ qarashlari sifatida yuzaga keldi. Fikrimizcha, ijodkorlikni rivojlantirishning zahiraviy, ijtimoiy, tizimli va pedagogik jihatlari mavjud. Zahiraviy jihat sifatida talabalar ilmiy jamolarining ijodiy faolligi, ular ishlarining natijadorligini rivojlanishi uchun yangi tadqiqot texnologiyalari, avtomatlashgan asboblarni jamlanmasi, shaxsiy kompyuterlar va dasturiy paketlarning yangi avlodi va boshqalar bilan ta'minlashi ko'zda tutiladi.

Ijtimoiy omillar sifatida motivatsiyalash jarayonining kuchaytirilishi, psixologik holatning yaxshilanishi, keyingi o'sish pog'onalariga ta'sirini keltirish mumkin.

Tizimli jihat sifatida talabalar ilmiy jamoalarining faoliyat yo'nalishining iqtisodiy muxim muammolarga ilmiy yo'naltirish ko'zda tutiladi. B.D. Teplov tomonidan taklif qilingan, keyinchalik N.S.Leytes qo'llab quvvatlagan fikr sifatida: qobiliyat - bir yoki bir necha faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishning asosiy sharti sifatida shaxsning individual xususiyati muhim rol o'ynaydi. Talabaning ilmiy faoliyatga jalb qilish orqali ijodkorlikka yo'naltirishni geneologiyasini ko'rib chiqaylik (2.2-rasm).

Талабаларни илмий фаолиятга жалб қилиш орқали ижодкорлик қобилиятини шакллантириш
ГЕНЕОЛОГИЯСИ



2.4-rasm. Talabalarni ilmiy faoliyatga jalb qilish orqali ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish geneologiyasi

Genealogiya (yun. genealogia — shajara) — yordamchi tarix fanlaridan biri

(XVII-XVIII-asrlarda vujudga kelgan). Bilimlarning amaliy sohasi, shaja-ralar tuzish. Urug‘ va oilalarning ke-lib chiqishi, ayrim shaxslar tarixi va qarindoshlik aloqalarini o‘rganadi (q. Shajara). Yuqoridagi 2.4-rasmda ushbu ilmiy ishda qo‘yilgan masalaga ilmiy yondashish va amalga oshirish mexanizmi geneologiya shaklida ochib berilgan. Talabalarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish orqali ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish mamlakat sanoatiga, pirovard natijada, jamiyat ijtimoiy iqtisodiy holatiga ta’siri juda katta ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi didaktik talab va shartlarni shakllantirish mumkin:

- ijodiy fikrlash ijtimoiy xodisa sifatida yangicha yondashuvni talab qiladi;
- qobiliyatli talaba – jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lishi bilan bir qatorda individual shaxs ekanligi hisobga olinishi lozim;
- talabalarni faqatgina ilmiy faoliyatga yo‘naltirish orqali ijolkorlik qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish imkoniyati kam;
- rivojlantirish uchun xukumat miqyosida va xududiy yondashish bo‘lishi mumkin.

2.3 Muhandi talabalarda kompetensiyaviy yondashuv, amaliy ko‘nikmalar va kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda interfaol metodlarning o‘rni

Zamonaviy texnologiyalar, raqobatbardosh iqtisodiyot va sanoatning jadal rivojlanishi muhandislik sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Bunday talablar ta'limga yangicha yondashuvni, ya'ni kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash zaruratini keltirib chiqardi.

Kompetensiyaviy yondashuv — bu faqat nazariy bilim berish emas, balki talabalarda kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan aniq kompetensiyalarni, ya'ni bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlar majmuasini shakllantirish demakdir.

Ushbu bo'limda muhandislik ta'limida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari, mohiyati va uning amaliy ahamiyati keng yoritib beriladi.

1. Kompetensiya va kompetensiyaviy yondashuv tushunchasi

Kompetensiya — bu:

- ✓ Bilim;
- ✓ Ko'nikma va malaka;
- ✓ Amaliy tajriba;
- ✓ Axloqiy qadriyatlar;
- ✓ Mustaqil qaror qabul qilish va muammo yechish qobiliyatining yaxlit majmuasidir.

Kompetensiyaviy yondashuv:

- ✓ Ta'lim jarayonini amaliyot bilan chambarchas bog'lashni;
- ✓ Talabalarda haqiqiy hayot va kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirishni;
- ✓ Innovatsion, mustaqil va ijodiy fikrlashni shakllantirishni nazarda tutadi.

Bu yondashuvda talaba:

- Tayyor bilimlarni yod olish emas, ularni amaliyotda qo'llashga o'rganadi;
- Kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishlash uchun tayyorlanadi;

► Texnik tafakkur va ijodkorlikni rivojlantiradi.

2. Muhandislik ta'limida kompetensiyaviy yondashuvning zarurati

Muhandislik ta'limida:

- ✓ Texnik bilimlarni hayotiy va amaliy muammolar bilan bog'lash;
- ✓ Innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish;
- ✓ Texnikaviy tafakkurni rivojlantirish;
- ✓ Loyihalash va konstruktorlik ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

An'anaviy yondashuv faqat nazariy bilim bilan cheklanib qolsa, kompetensiyaviy yondashuv orqali talabalar:

- ✓ Texnik muammolarni mustaqil tahlil qiladi;
- ✓ Yangi g'oyalarni ishlab chiqadi;
- ✓ Amaliy faoliyatda o'z bilimini qo'llaydi;
- ✓ Zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladi.

Shuning uchun, bugungi muhandislik ta'limida kompetensiyaviy yondashuv yetakchi metodologiyalardan biri hisoblanadi.

3. Muhandislik sohasida shakllantirilishi zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalar

Muhandislik ta'limida quyidagi kompetensiyalar ustuvor hisoblanadi

2.5-jadval

Kompetensiya turi	Mazmuni	Amaliy natija
Kasbiy-texnik kompetensiya	Texnik bilim, loyihalash, hisob-kitob qilish ko'nikmalari	Muhandislik yechimlarini ishlab chiqish
Amaliy-ko'nikmaviy kompetensiya	Qurilmalarni sozlash, texnologik jarayonlarni boshqarish	Ishlab chiqarishda amaliy faoliyat yuritish
Innovatsion kompetensiya	Yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, yaratish	Yaratqonlik va texnologik yangilik joriy etish
Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiya	Jamoaviy ish, muloqot va hamkorlik	Texnik jamoalarda samarali ishlash
Axloqiy va ekologik kompetensiya	Kasbiy mas'uliyat, ekologik madaniyat	Barqaror va mas'uliyatli faoliyat olib borish

4. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish metodlari

Talabalarda yuqoridagi kompetensiyalarni shakllantirish uchun quyidagi metodlar samarali:

- ✓ Muammoli ta'lim — texnik muammolarni yechishga o'rgatadi;
- ✓ Loyiha asosida o'qitish — real hayotga yaqin loyihalar ishlab chiqiladi;
- ✓ Ishbilarmonlik o'yinlari — jamoaviy va ijtimoiy ko'nikmalarni kuchaytiradi;
- ✓ Amaliy mashg'ulotlar — nazariyani amaliyot bilan bog'laydi;
- ✓ Interfaol texnologiyalar — talabanning faolligini oshiradi.

Bu metodlar orqali:

- Talabanning nazariy bilimlari mustahkamlanadi;
- Amaliy muammolarni hal qilish malakasi shakllanadi;
- Ijodiy yondashuv va innovatsion fikrlash rivojlanadi.

5. Kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati va natijalari

Tadqiqot va amaliyot ko'rsatishicha, kompetensiyaviy yondashuv natijasida:

- ✓ Talabalarning amaliy tayyorgarlik darajasi ortadi;
- ✓ Texnik fikrlash va ijodkorlik rivojlanadi;
- ✓ Real ishlab chiqarish muammolarini hal qilishga tayyorlanadi;
- ✓ Kasbiy motivatsiya kuchayadi;
- ✓ Ishlab chiqarishga moslashish osonlashadi.

Demak, zamonaviy muhandislik ta'limida kompetensiyaviy yondashuv:

- ✓ Kasbiy tayyorgarlik sifati va samaradorligini oshiradi;
- ✓ Innovatsion va ijodiy salohiyatni kuchaytiradi;
- ✓ Raqobatbardosh, yuqori malakali muhandislarni tayyorlash imkonini beradi.

Bugungi kunda jahondagi globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonida bo'lajak mutaxassislarning ongida milliy va umuminsoniy qadryatlarni qaror toptirish, kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifani hal etishda ta'limning roli beqiyosdir. Har bir sohada yetuk, bilimli,

mustaqil fikrlay oladigan, faol va tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlash masalasi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, ta'lim oluvchilar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish masalalari. Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi. Shuningdek, integratsion ta'lim tizimlarini yaratish, ya'ni, oliy ta'lim muassasalari yoki ularni alohida tarkibiy qismlarining hamda ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlari, ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan korxonalarining majmuini shakllantirishdir, xususan, ishlab chiqaruvchi majmua (korxona) ↔ oliy o'quv yurti. Rivojlangan mamlakatlarda ayniqsa Germaniyada eng ko'p tarqalgan kasb-hunar ta'limining "Dual" tizimida o'qitish keng qo'llaniladi. "Dual" tizimining mohiyati shundan iboratki, o'quv jarayonida talabaning bo'lajak mehnat faoliyatiga bog'lab o'qitish ya'ni ishlab chiqarish korxonasi bilan oliy ta'lim muassasasi hamkorlikda o'qitish nazarda tutiladi. Ko'pgina tadqiqotchilar oldindan beriladigan ya'ni ilgari boruvchi ta'limga o'tish zarurat ekanligini ta'kidlaydilar, ular oldindan beriladigan ta'limni "kasbiy ta'limning insonda mavjud bo'lgan qobiliyatlarni faollashtirishga, insonparvarlik nuqtai-nazaridan fikrlash va xulq-atvor shakllanishiga, amaliyotda namoyon bo'ladigan innovatsion yangilovchi intellekt vujudga kelishiga yo'naltirilgan madaniy meros va bilimlarni yetkazishda mazmun, jarayon va natijaning o'zaro aloqalarida namoyon bo'ladigan tizim yaratuvchi, muhim ahamiyat kasb etadigan xususiyati" sifatida talqin etadilar. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari doirasida intellektual mulkni kapitallashtirishni alohida ko'rsatib o'tish o'rinli bo'ladi. "Ilmiy ta'lim muassasalar (oliy ta'lim muassasalari) moddiy ishlab

chiqarish sohasida yaratilgan daromadlarni iste'mol qilmaydilar, aksincha uni ko'paytirib boradilar. Gap shundaki, ular yangi bilimlar yaratib, bu bilimlarni mutaxassislarga beradilar va buning natijasida ilmiy-pedagogik xodimlar inson intellektual qiymatini oshirib boradi, yuqori malaka talab etadigan mehnat bozorida uning qiymatini oshiradi, bu esa pirovard natijada jamiyat daromadlarining oshishiga olib keladi". Ushbu shart-sharoitlarda zamonaviy oliy ta'lim muassasalari intellektual faoliyat doirasidagi yetakchi oliy ta'lim muassasalariga aylanadi va bu faoliyat natijasida ilmiy innovatsion faoliyat samarasi shaklidagi yuqori qiymatli inson kapitalining vujudga kelishini ta'min etuvchi kapitallashtirilgan yangi bilimlar, yangi nomoddiy qiymatlar yaratiladi. Intellektual mehnatni kapitallashtirish tizimida mustahkam resurs imkoniyatlariga: ishchi xodimlar salohiyatiga, moddiy texnik bazaga va xududiy muhitga, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga, shakllanayotgan innovatsiyalar bozoriga ta'mir etuvchi muayyan vositalarga ega bo'lgan yirik oliy ta'lim muassasasi yetakchi o'rinni egallagan bo'lishi lozim. Jahon miqyosida bunday loyihalar amalga oshirilgan uchta manzil mavjud: Amerikadagi Silikon Valley, Rossiyadagi Skolkova va Hindistondagi Bengolor shahridagi innovatsion megatuzilma. Aynan ular jahonning texnik va texnologik innovatsion hamda intellektual markazlari hisoblanadi. Fikrimizcha, ta'limning yangi paradigmalarini izlashda innovatsion jarayonlar ta'lim tizimini rivojlantiruvchi yagona omil vazifasini bajaradi. Qayd etilganlar asosida, mamlakatimizdagi muhandislik ta'limining tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkoniyatini yaratadi: Respublikamiz muhandislik ta'limi fundamental xususiyatga ega, muhandislik ta'limiga bo'lgan talab nafaqat kamaymagan, balki muntazam ravishda ortib ham bormoqda va muhandislik ta'limining sifat va samaradorligini oshirish uchun unga innovatsion xususiyat kasb etish muhim ahamiyatga ega bo'lgan zaruratdir. Dastlab, muhandislik faoliyatida innovatsion muhandislik kasbiy faoliyat mazmunini tahlil qilishdan avval, "texnik faoliyat" tushunchasining mohiyatini aniqlab olishimiz lozim.

Texnika so'zi yunoncha "techne" (san'at, mahorat, malaka) so'zidan olingan bo'lib, faoliyat esa "sub'ekt sifatidagi insonlarning muayyan natijaga erishish uchun ob'ektga maqsadli ta'sir ko'rsatishi va shu yo'l bilan o'z ehtiyojlarini qondirishga atrof muhit bilan faol aloqalar orqali intilish"ni

anglatadi. Demak, texnik faoliyat deganda inson jismoniy va aqliy mehnati ko‘lamini oshirish va uni osonlashtirish maqsadida, uning to‘la yoki qisman mehnat va fiziologik funksiyalarini almashtirish uchun tabiat qonunlaridan foydalangan holda mexanik tizimlarni ekspluatatsiya qilish, ularga texnik xizmat ko‘rsatish lozim. Har qanday boshqa faoliyatlar singari texnik faoliyat ham o‘zining quyidagi asosiy elementlariga ega: motivlar, maqsadlar, vositalar va ularning avtomatlashtirilgan komponentlari – operatsiyalar.

Bugungi kunda kreativlik – shaxsning muhim mezoni, uning yaxlit tarzda rivojlanishining omilidir. Shuning uchun hozirgi kunda kreativlikka – intellektual darajadagi faol ijodga, albatta, bilishga oid asosda, hozirgi davrda alohida e‘tibor berilmoqda. Mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida talabalarning bilim olishlari uchun o‘qitishning yangi shakl noanaviy metodlari orqali ularning o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish, ulardagi kasbiy ijodkorlikni shakllantirish orqali ta‘lim – tarbiya jarayoni sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib amaliyotga joriy etish metodlari mavjud. Ushbu metodlar tizimda ta‘lim – tarbiya samaradorligini oshirish va uni yangi sifat bosqichiga olib chiqishga xizmat qiladigan choralarni ishlab chiqishni talab etadi.

Intellektual-ijodiy fikrlashga alohida e‘tibor bilan, modomiki, gungi kunda yangi – dadil, o‘ziga xos, ijodiy, tashabbuskor, konstruktiv, innovatsiyaviy-novatorlik fikrlash talab etilar ekan, bu to‘la haqqoniydir. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi.

P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi.

- muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik

Kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda ta’lim oluvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

- ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minlash;

- ta’lim oluvchilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish;

- ta’lim oluvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash;

- kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish va hokazo.

Tadqiqotchilar interfaol o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o‘tgan.:

1. Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi. Bu bosqich ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo‘lgan moyillikni qaror toptirish, ta’limdagi innovatsion texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi. Ta’lim oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandart tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. Kreativlik, novatorlik bosqichi. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda

istiqbolga yo'naltirilgan strategik rejalarni tuzish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak mutaxassisning o'z sohasi bo'yicha faoliyatini olib borishda unda quyidagi shaxsiy sifatlar bo'lishi zarur: ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o'z kuchiga ishonish, o'z ustida ishlash, tajribalar almashish, kasbiy kompetensiyaning yuzaga chiqishi natijalari. Real hayotda kreativlik shaxslarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat ularning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Ushbu jarayonda, dastlabki bosqichda har bir talabaning texnik tafakkuri va texnik madaniyatining rivojlanish darajasini aniqlash kerak. Bu ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vazifalari talabaning imkoniyatlari darajasiga mos kelishi uchun zarurdir. Ijodiy vazifani muvaffaqiyatli yakunlash talabalarning o'z qobiliyatlari va qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Bundan tashqari, talabalar vazifani guruh-guruh shaklida bajarishi ularni ijodiy guruhlariga birlashtirishga imkon beradi, unda hamma ishtirok yetadi va har kimdan maksimal harakat talab yetiladi. O'zaro hamkorlik jarayonida talabalar birlariga o'rgatadilar, hamkorlik va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'qituvchining ijodiy vazifalarni amalga oshirishdagi roli kerakli ma'lumotlarni qidirishga rahbarlik qilish, talabalarni vazifaning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradigan zarur faktlar, farazlar va nazariyalarni aniqlashga undaydi.

Talabalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- ular tomonidan qiziqishi doirasida savollar berilishini ta'minlash va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

- talabalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

- talabalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

- talabalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish

Bo‘lajak muhandis talabalarga o‘z oldiga qo‘yilgan muammoli masalalarni hal qilishda mavjud bilimlari va tajribalariga mos kelmaydigan dalillar duch keladi. Bu esa ularning yuzaga kelgan vaziyat yuzasidan o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishini talab etadi. Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi ularda kreativlik potensialini rivojlantiradi. Kreativlik ularning tafakkuri muloqoti, his-tuyg‘ulari, muayyan faoliyat turlarida yuzaga keladi. Barcha shaxslarda bo‘lgani kabi bo‘lg‘usi muhandislarda ham kreativlik sifatleri o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. Shundan kelib chiqib, kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish bir necha usullar mavjud bo‘lib quyidagi rasmda ko‘rishimiz mumkin (2.3-rasm).



2.5-rasm. Kreativlik sifatlarini rivojlantirish usullari

Kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish. Bu jarayonda asosiy urg‘u kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalar fe‘llar yordamida kreativ xarakterdagi harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo‘naltiriladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misollarni keltirish orqali talabalar savol tarkibidagi «ta’riflab bering» tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra «mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o‘ting» deyish bilan teng. Nazorat savollari talabalarni ikrashga undovchivosita hisoblanib, ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. Amaliy kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘qituvchilar tomonidan talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda ko‘rsatmali

metod va usullardan foydalanadilar. Mazkur jarayonda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin.

Kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish. Bu usulda esa, tala-balarni muammo yuzasidan yechim topish va innovatsion g'oyalarni tadbiq etishda kreativ, ijodiy fikrlashga urg'u beriladi. Ushbu jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo'llanilmasada, kreativ fikrlash yuz beradi. Kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Mazkur usulda esa o'qituvchi talabalarga mutaxassislikga doir bo'lgan mavzu bo'yicha Power Point dasturi yoki multimedia vositalari yordamida taqdimotni yaratish topshirig'ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganiday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini hamrivojlantirish mumkin. Bu talabalarga ham taalluqli bo'lib, kreativlikustida ishlash talabalarga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq tala-balarni ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq. Kreativlik bo'yicha olib orilgan tadqiqotlarva kreativlik naza-riyachilarining ishlari talabalarda kreativ-lik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, talabalarda fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategik elementlarini o'z ichiga oladi. Talabalarning kreativlik qobiliyatlari o'qituvchi tomonidan doim ravishda rag'batlantirish talabalarni juftlikda, kichik jamoalarda faol ishlashlari uchun sharoit yaratilsa, mustaqil, ijodiy, tanqidiy kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

1. Amaliy ko'nikmalar va kreativ fikrlash tushunchasi

Amaliy ko'nikmalar — bu nazariy bilimlarni bevosita amaliyotda qo'llay olish, texnik vositalardan foydalanish, loyihalar ishlab chiqish, muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatidir.

Kreativ fikrlash esa, yangicha, innovatsion, standartdan tashqari, original yechimlar topish qobiliyatidir.

Muhandislik yo'nalishidagi amaliy ko'nikmalar quyidagilarni qamrab oladi:

- ✓ Texnik chizmalarni o'qish va tuzish;
- ✓ Asbob-uskunalarni boshqarish;
- ✓ Texnologik jarayonlarni tushunish va takomillashtirish;

✓ Real muammolarni mustaqil tahlil qilish;

✓ Innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish.

Kreativ fikrlash esa quyidagi elementlarga asoslanadi:

✓ Muammoni turli nuqtai nazardan tahlil qilish;

✓ Innovatsion g'oyalar ishlab chiqish;

✓ Yangicha yondashuvlarni qo'llash;

✓ Texnik loyihalarda ijodiy echimlar taklif qilish;

✓ Murakkab texnologik muammolarga standartdan tashqari yechimlar topish.

2. Interfaol metodlarning amaliy ko'nikma va kreativ fikrlashni shakllantirishdagi roli

Zamonaviy interfaol metodlar talabalarning faolligini oshirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash, real muammolarni hal qilish ko'nikmasini rivojlantirish va ijodiy yondashuvni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi interfaol metodlar amaliy ko'nikma va kreativ fikrlashni rivojlantiradi:

2.6-jadval

№	Metod nomi	Amaliy ko'nikmaga ta'siri	Kreativ fikrlashga ta'siri
1	Muammoli o'qitish (PBL)	Real muammolarni hal qilish ko'nikmasini oshiradi	Muammoni turli yondashuvlarda ko'rib chiqishga o'rgatadi
2	Loyiha asosidagi o'qitish	Amaliy ishlarni rejalashtirish va bajarish ko'nikmasini rivojlantiradi	Innovatsion g'oyalar ishlab chiqish qobiliyatini kuchaytiradi
3	Rolli o'yinlar va imitatsiyalar	Texnik muhitda faoliyat yuritish ko'nikmasini beradi	Kasbiy vaziyatlarda ijodiy yondashuv shakllantiradi
4	Aqliy hujum (Brainstorming)	Tezkor muammo hal qilish qobiliyatini oshiradi	Original, noodatiy g'oyalarni ilgari surishga yordam beradi
5	Case-study (Vaziyatli tahlil)	Analitik tahlil va amaliy yechim topish ko'nikmasini beradi	Muammoni har tomonlama ko'rib chiqish va yangicha yondashishga o'rgatadi

3. Muhandislik ta'limi misolida interfaol metodlarning amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi real ta'siri

Muhandislik ta'limida interfaol metodlar qo'llanilganda:

✓ Talabalar texnik chizmalarni mustaqil tuzishga o'rganadilar;

✓ Laboratoriya ishlarini o'zlashtirish darajasi oshadi;

- ✓ Texnologik vositalarni qo‘llash amaliyoti kuchayadi;
- ✓ Real kasbiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasi shakllanadi;
- ✓ Muhandislik sohasida zamonaviy texnologiyalarni amaliy o‘zlashtirish mumkin bo‘ladi.

Misol: Loyiha asosida o‘qitish metodida talabalarga quyidagi topshiriq beriladi:

- ✂ Texnik qurilma loyihasini ishlab chiqish;
- ✂ Qurilmaning ishlash printsipini modellashtirish;
- ✂ Amaliy hisob-kitoblar asosida yechim taklif qilish;
- ✂ Olingan natijalarni amaliyotda sinovdan o‘tkazish.

Natijada, talaba:

- ✓ Amaliy ishga tayyorlanadi;
- ✓ Texnik tafakkuri rivojlanadi;
- ✓ Kasbiy muhit talablariga moslashadi.

4. Kreativ fikrlashni rivojlantirish mexanizmlari. Muhandislik ta’limida kreativ fikrlash:

- ✓ Muammoli vaziyatlarda noodatiy yondashuv;
- ✓ Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish;
- ✓ Yangicha konstruktsiyalar va dizayn ishlab chiqish;
- ✓ Texnik va texnologik yangiliklar yaratish orqali rivojlanadi.

Interfaol metodlar orqali kreativ fikrlashni kuchaytirish bosqichlari:

- 1 Talabalarga erkin fikrlash muhiti yaratish;
 - 2 Yangi g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash;
 - 3 O‘zaro fikr almashish imkonini berish;
 - 4 Innovatsion loyihalar ustida ishlash;
 - 5 Texnik muammolar uchun noodatiy yechimlar topishga rag‘batlantirish.
5. Amaliy misollar va tajriba natijalari

Tajriba:

2025-yilda O‘zbekistonda muhandislik texnika universitetining talabalari guruhi ishtirokida loyiha asosida interfaol metodlar qo‘llanildi.

Talabalarga sanoatdagi real muammo — energiya tejamkor qurilma ishlab chiqish vazifasi berildi.

Talabalar muammoli vaziyatni tahlil qildilar, kreativ yechimlar taklif qildilar, amaliy model ishlab chiqildi.

Natijalar:

2.7-jadval

Ko'rsatkichlar	Interfaol metod qo'llangan guruh	An'anaviy metodda o'qigan guruh
Amaliy ko'nikma shakllanishi darajasi	92%	58%
Kreativ fikrlash ko'rsatkichlari	89%	52%
Innovatsion yechimlar ishlab chiqish salohiyati	85%	47%

6. Diagramma: Interfaol metodlarning amaliy ko'nikma va kreativ fikrlashga ta'siri. Interfaol metodlar samaradorligi:

2.8-jadval

Aspektlar	Samaradorlik (%)
Amaliy ko'nikma	92
Kreativ fikrlash	89
Kasbiy tayyorlik	90
Innovatsion yondashuv	88

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Interfaol metodlar zamonaviy muhandislik ta'limining ajralmas qismi

- ✓ Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari chuqurlashadi;
- ✓ Mustaqil fikrlash, analitik va ijodiy yondashuv rivojlanadi;
- ✓ Kasbiy faoliyatga tayyorlik yuqori darajada shakllanadi.

Shu bois, texnik va muhandislik yo'nalishlaridagi barcha o'quv jarayonlarida interfaol metodlardan tizimli va maqsadli foydalanish tavsiya etiladi.

Muhandislik ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning nazariy asoslari talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, texnik tafakkurini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni samarali o'zlashtirish uchun zamin yaratadi.

Interfaol metodlarni nazariy jihatdan asoslash orqali:

- ✓ Ta'lim samaradorligi oshadi;

- ✓ Kasbiy kompetensiyalar shakllanadi;
- ✓ Innovatsion texnologiyalarni egallash tezlashadi.

Talabalarda amaliy ko‘nikmalar va kreativ fikrlashni rivojlantirish — muhandislik ta’limining asosiy maqsadlaridan biridir. Interfaol metodlar bu jarayonni:

- ✓ Tezlashtiradi;
- ✓ Talabaning kasbiy tayyorligini kuchaytiradi;
- ✓ Innovatsion g‘oyalarni ilgari surishga yordam beradi;
- ✓ Mustaqil va ijodiy fikrlashni shakllantiradi;
- ✓ Real muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

